



A. QAYIMOV, A.R. BOBOJONOV

**YER RESURSLARINI BOSHQARISH VA  
UNUMLI FOYDALANISHDA MEVALI  
EKINLARNING XILMA-XIL NAVLARINI  
JOYLASHTIRISH**



ISBN 978-9943-6490-1-9



9 789943 649019

TOSHKENT

**AKADEMIK MAHMUD MIRZAYEV NOMIDAGI  
BOG'DORCHILIK, UZUMCHILIK VA VINOCHILIK  
ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**A.QAYIMOV, A.R. BOBOJONOV**

**YER RESURSLARINI BOSHQARISH VA  
UNUMLI FOYDALANISHDA MEVALI  
EKINLARNING XILMA-XIL NAVLARINI  
JOYLASHTIRISH**

**TOSHKENT–2020**

**UDK: 631.1:634(035)**

**KBK 42.35ya7**

**Q-17**

**Q-17**

**A.Qayimov, A.R. Bobojonov Yer resurslarini boshqarish va unumli foydalanishda mevali ekinlarning xilma-xil navlarini joylashtirish.** –T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020. 72 bet.

**ISBN 978–9943–6490–1–9**

Ushbu qo'llanma Bioversity/UNEP-GEF «O'zbekistonning qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimlarida ekotizimlarni boshqarish va qo'llab-quvvatlash funksiyalarini yaxshilash uchun qishloq xo'jalik ekinlari bioxilma-xilligini saqlash va undan barqaror foydalanish» mintaqaviy loyihasi doirasida tayyorlandi va nashr etildi. Ushbu loyiha O'zbekistonda amalga oshirilmoqda va Global Ekologik Jamg'arma (GEJ) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit Dasturining (BMTAD) texnik ko'magi bilan Bioversity International tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Qo'llanma Toshkent davlat agrar universiteti Manzarali bog'dorchilik kafedrasi professori A. Kayimov va Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Yerdan foydalanish kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi A.R.Bobojonov tomonidan nashrga tayyorlangan va O'zbekistonda yerdan unumli foydalanish sohasidagi universitet va kollejlar bakalavr va magistrantlari uchun amaliy vosita sifatida foydalanish mumkin.

**UDK: 631.1:634(035)**

**KBK 42.35ya7**

**Taqrizchi:**

**X.Ch. Buriyev – Toshkent davlat agrar universitetining sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik kafedrasi professori.**

**Taklif va muloxazalar uchun kontaktlar:**

Akademik Maxim Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochillik ilmiy-tadqiqot instituti

Manzil: 111116, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Guliston QFY, Chimkent yo'li ko'chasi

Tel.: (+998 71) 2202442, (+998 71) 2202682

Faks: (+998 71) 2202648

El. pochta: buviti@mail.ru

**ISBN 978–9943–6490–1–9**

**© «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи» 2020.**

## KIRISH

Kishilik jamiyati vujudga kelgandan buyon tabiiy resurslar ichida yer ayniqsa katta iqtisodiy - ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib qolavergan. Berilgan rasmiy ma’lumotlarga qaraganda mamlakatimiz umumiylar maydoni 44896,9 ming ga ni tashkil etadi. Ushbu maydonning 75,0 foizga yaqini o‘zlarining asosiy faoliyatlarida foydalanishlari uchun turli korxona, muassasa va tashkilotlarga, shuningdek fuqarolarga biriktirilgan. Yer resurslari respublikamizning milliy boyligidir.

Ishlab chiqarishning har qanday vositalaridan oqilona va samarali foydalanish ko‘p jihatdan uni tashkil etishga yo‘naltirilgan qator tadbirlarni qay darajada o‘tkazilayotganligiga bog‘liqdir. Davlat tomonidan o‘tkazilayotgan bunday tadbirlar qanchalik to‘g‘ri va oqilona tashkil etilgan bo‘lsa, yer maydonlaridan foydalanish va umuman iqtisodiyotning rivojlanishi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Yerni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini va iqtisodiy samaradorligini doimo oshirib borish – bu, birinchi galda, qishloq xo‘jaligini yuritishning ilmiy tizimi assoslari va yerdan yuqori mahsuldorlik bilan foydalanishdir. Shu jihatdan ham yerdan to‘g‘ri foydalanishni tashkil etishga yo‘naltirilgan davlat yer kadastri, yer tuzish, yer monitoringi, yer huquqi, yer solig‘i, yerdan foydalanishni davlat nazoratini o‘rnatish kabi tadbirlarning tub mohiyatini bilish va ularga rioya qilish katta amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi [4]. Shuning uchun ham bo‘lg‘usi mutaxassislarni respublika yer maydonlaridan foydalanishni tashkil etishga yo‘naltirilgan yuqoridagi tadbirlarning umumiylarini, mohiyati va o‘tkazish uslubiyatlari bilan tanishtirish ularni kasbiy mahoratlarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Qo‘llanmada davlat yagona yer fondi va uning toifalari, yer tuzish, yer kadastri, yer monitoring, yerdan muhofaza qilish, yerdan foydalanishni iqtisodiy omillarini, yer resurslарidan foydalanishni boshqarish va boshqalar to‘g‘risida umumiylar tushunchalar beriladi.

## **Yer – tabiiy resurs hamda xalq xo‘jaligi tarmoqlarining ishlab chiqarish vositasi sifatida**

Yer tabiat mahsuli sifatida paydo bo‘lgan va inson ongi hamda irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjuddir. U murakkab moddiy tizim sifatida ifodalanadi va yer to‘g‘risidagi tushunchaning turli - tuman mohiyatini o‘z ichiga oladi.

Yerni ishlab chiqarish vositasi, holati to‘g‘risidagi so‘z yuritishdan oldin albatta birinchi navbatda, yer to‘g‘risidagi umumiyl tushunchaga ega bo‘lmoq zarur. Geografik nuqtayi nazardan Yerning yuzasi sayyora deb tushuniladi. Yer quyosh tizimining uchinchi sayyorasi hisoblanadi. U bundan 4,5 milliard, boshqa bir ma’lumot bo‘yicha 5,5 milliard yil oldin paydo bo‘lgan. Yer sayyorasida quriqlik 149,1 mln.kv.km ni tashkil etgan bo‘lib u dengiz sathidan o‘rtacha 875 m balandlikda joylashgan. Shu quruqlikning 1/3 qismi tog‘lardan iborat. Okeanlarning maydoni 361,1 mln.kv.km dan iborat. Ushbu ma’lumotlar yer to‘g‘risida umumiyl tushuncha beradi [12].

Asosiy tabiiy resurslar turiga yer, suv, biologik va mineral boyliklar bilan birga atrof-muhit havosi ham kiradi.

Tabiiy resurslar – bu tabiiy muhitning ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining hozirgi darajasida odamlarning moddiy va ma’naviy talablarini (mehnat predmetlari va vositalari, iste’mol predmetlari) qondirish uchun foydalanilayotgan yoki foydalanilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy elementlaridir.

Tabiiy muhitning ahamiyati tarkibiy qismi – yer resurslaridir. U hududi, iqlimi, relyefi, tuproqlarining sifati, gidrologik sharoiti, o‘simgiliklari va boshqa belgilari bilan tavsiflanadi, xalq xo‘jaligi obyektlarini va aholini joylashtirish uchun kenglik asos, qishloq va o‘rmon xo‘jaliklarida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yer resurslaridan foydalanish suv manbaalariga, qazilma boyliklar zaxirasiga, havo basseyniga, o‘simgilik va hayvonot dunyosiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etadi.

Mamlakatimiz yer resurslaridan oqilona, ekologik jihatdan xavfsiz foydalanish – har bir fuqaroning, korxonaning va butun jamiyatning konstitutsiyaviy burchi hisoblanadi. Qonun yerdan va yer osti boyliklaridan, suv resurslaridan, o‘simgilik hamda hayvonot dunyosidan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish, suvning va havoning tozaligi va ularni saqlash, tabiiy boyliklarning tiklanishini

ta'minlash bo'yicha barcha zarur choralarni amalga oshirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yer va boshqa tabiiy resurslar o'sha hududda yashaydigan xalqlar hayoti va faoliyatining asosi sifatida foydalaniishi va muhofaza etilishi belgilab qo'yilgan. Tabiiy resurslar tarkibida yer ularning hududiy, xo'jalik va ekologik o'zaro bog'liqliklarini hamda o'zaro munosabatlarini ta'minlovchi, tabiatdan foydalanishning kenglik asosi sifatida ajralib turadi. Qonunchilik yerning unumdarligiga zarar yetkazishni taqiqlaydi [1].

Yer tabiiy muhitning birlamchi o'zgarmas omillari jumlasiga kiradi, suv kengliklari, yer osti boyliklari, o'simlik, hayvonot dunyolari esa o'zlarining joylashishlari bo'yicha harakatlanuvchanlik xarakteriga ega.

O'simlik qoplamasining yuqolib ketishi yoki keskin o'zgarishi, hayvonlarning hozirgi sahro hududlaridagi va abadiy muzliklar mintaqalaridagi migratsiyasi va halokati to'g'risidagi ko'plab dalillar ma'lum. Mineral xomashyo va yonilg'iga boy bo'lgan konlarning zaxiralari kamayadi, suv resurslarining qayta taqsimlanishi yuz beradi.

Ulardan foydalanish usullariga va xo'jalik oqibatlariga bog'liq holda tabiiy resurslar tugaydigan (qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan) va tugamaydigan turlarga bo'linadi. Yerga tiklanishi cheklangan tabiiy resurs sifatida qarash to'g'riroq bo'ladi (1-jadval).

Yer foydalanish jarayonida har xil sferalarga mansub tabiiy resurslarni birlashtiradi. Uning xo'jalikdagi qimmati, tabiiy va paydo qilingan xususiyatlarining oqilona mujassamlashtirilishi va foydalanimishidan paydo bo'ladi va to'xtovsiz o'sib boradi. Tabiiy resurslarning o'zaro aloqalarini o'rghanish atrof-muhit mahsuldarligiga va foydaliligidagi, qayta tiklanish imkoniyatiga, ahvoliga ijobiy ta'sir etuvchi tadbirlar majmuasini ishlash va amalga oshirish uchun zarur.

## Tabiiy resurslar, ulardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari va ular tarkibiga yerning o‘rni

1-jadval

Tabiiy resurs-lar	U yoki bu tabiiy sferaga mansubligi	Yer bilan o‘zaro aloqalari xarakteri	Xo‘jalikda foydalanishning yo‘nalishi	Foydalanish-da qayta tiklanish imkoniyati
Yer	Litosfera		Agrosanoat majmuasi va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari korxonalarini joylashtirish, oziq-ovqat mahsulotlarini va xomashyo ishlab chiqarish, noishlab chiqarish faoliyatini olib borish	Tiklanish cheklangan
Mine-ral	Litosfera	Tuproqlarning mineral asosini tashkil etadi. Yer qatlami tagida foydali qazilmalar bor	Mineral va yonilg‘i-energiya xomashyosi	Tiklanmay-digan
Suv	gidrosfera	Tabiiy muhit elementlarining barchasida suv suyuq, qattiq, gazsimon holatlarida mavjud	Qishloq xo‘jaligi, maishiy va sanoat suv iste’moli	Qayta tiklanadi
O‘sim-lik	Biosfera	Yerning usti va tuproq qatlami bilan ajralmas bog‘liq holda mavjud	Dehqonchilik va o‘rmon xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish	Tiklanadi
Hay-vonot dun-	Biosfera	Yerning usti va tuproq qatlami bilan ajralmas	Chorvachilik, ovchilik hayvonot mahsulotlarini	Tiklanadi

yosi		bog‘liq holda mavjud	yetishtiruvchi xo‘jaliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish	
Iqlimiyl	Atmosfera	Tabiatda issiqlik, namlik, gaz almashish manbaasi	Odamlar hayoti va ishlab chiqarish faoliyatining iqlimiyl sharoitlarini tashkil etadi	Tiklanishi cheklangan

Iqtisodiy nuqtayi nazardan yerga, an'anaviy tarzda, inson yordamisiz tabiat tomonidan yetkazilgan mehnat predmetlari to‘plami sifatida qaralgan. Shuning uchun amaliy jihatdan hamma vaqt tabiiy muhitning qandaydir elementidan foydalanish (qazilma boyliklar, suvlar, o‘simpliklar va shunga o‘xshash) yerning sifatiga va tuproq unumdoorligiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yer resurslarini tiklanishi cheklangan tabiiy resurslar qatoriga kiritish ikkita sababdan kelib chiqadi: bir tomondan kenglik, hudud, yerning usti, quruqlik bilan suv nisbatining xususiy tarzdagi o‘zgarishlarini hisobga olmaganda qayta tiklanmaydi; boshqa tomondan – yer turlarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, yaxshilash, tiklash uchun imkoniyatlar amaliy jihatdan cheksizdir.

“Yer, odam – ishlab chiqarish” tizimi elementlarining oqilona o‘zaro ta’siri quyidagi prinsipial masalalarni yechishni taqozo etadi.

- ishlab chiqarishning yer resurslariga salbiy ta’sirini ekologik xavfsiz darajagacha kamaytirish;
- yer resurslarining sifat xususiyatlarini ulardan foydalanishda (ayniqsa qishloq xo‘jaligida) maksimal to‘la hisobga olish;
- odamlarning moddiy va ijtimoiy talablarini to‘laroq qondirish maqsadida yerlarni yaxshilash va muhofaza qilish [14].

Tabiiy muhit omillari qishloq xo‘jaligida asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbekiston yer fondini tabiiy – qishloq xo‘jalik tumanlariga bo‘lish ma’lumotlariga asosan, uning 95% hududi issiq va quruq, og‘ir va noqulay iqlimli mintaqalarda joylashgan. Qolgan 5% esa tog‘ mintaqalarida joylashgan. Hududning tabiiy unumdoorligi juda past. Shuning uchun respublikamizda yerdan dehqonchilikda foydalanish sug‘orishga asoslangan.

Jamiyatning to‘xtovsiz o‘sib boruvchi talablarini qondirish yer resurslaridan yuqori intensivlikda foydalanishga olib keladi. Shuning uchun tabiiy majmualarni takomillashtirish va rivojlantirish, ularning xo‘jalik qiymatlarini oshirish maqsadida atrof-muhit omillarining o‘zaro ta’sirlarini ilmiy asosda amalga oshirish kerak.

Yerdan oqilona foydalanishni, mintaqaviy tabiiy tizimlarni rivojlantirishga kompleks yondashishda uning ishonchli muhofazasini ta’minlashdan ajratib bo‘lmaydi. Yerni himoyalash tadbirlarining mazmuni yerga xo‘jalik ta’sirining kuchayishiga mos kelishi, tuproqlar unumдорligining to‘xtovsiz oshishiga yordam berishi kerak.

Bizning davlatimizda uzoq vaqt largacha yerdan tekin foydalanish tamoyili amalda bo‘ldi, yetishtirilgan mahsulotning asosiy qismi esa davlat tomonidan tasarruf etildi. Bularning hammasi xo‘jalik yuritishning normal iqtisodiy mexanizmi yaratilishiga, obyektiv baho belgilashga to‘sinqinlik qildi, korxonalarining yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishdan manfaatdorliklarini susaytirdi. Faqat o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab qishloq xo‘jaligining unumдор yerlari noqishloq xo‘jalik maqsadlari uchun olinganda qoplama (kompensatsiya) to‘lana boshladи, biroq ular to‘la hajmida to‘lanmadи. Hozirgi O‘zbekiston qonunchiligidagi yerdan va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish uchun yer solig‘i va ijara haqi shakllarida to‘lovlar ko‘zda tutilgan [5]. Yerlarning joylashgan o‘rniga va tabiiy unumдорligidagi farqlar natijasida qishloq xo‘jaligida paydo bo‘ladigan differensial yer rentasini, shu jumladan, korxonalarining moliyaviy vositalarini yer resurslarini qayta tiklash va muhofaza qilish uchun jalb etish maqsadida, iloji boricha to‘larоq hisobga olish, vazifasi qo‘yiladi.

## **Yerdan foydalanish va yer munosabatlari to‘g‘risida tushuncha**

*Yer munosabatlari – bu yerdan foydalanish, unga egalik qilish va uni tasarruf etish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlardir. Ular fuqarolar, korxonalar, davlat organlari hamda boshqa xo‘jalik va o‘zga faoliyatlar subyektlari orasida kelib chiqadi. Qonun bilan tartibga solinib, ular yer huquqi munosabatlari, ya’ni yerdan foydalanish sohasidagi iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashning huquqiy shakliga aylanadi. Ularning bevosita obyekti – har xil maydonga,*

joylashgan o‘rniga, sifati va mo‘ljallangan maqsadiga ega yer uchastkalaridir.

*Jamiyatning yer tuzumi – bu jamiyatda yerga mulkchilikning qonun bilan belgilangan shakllari, unda xo‘jalik yuritish, yerga egalik qilish, yerdan foydalanish shakllari va yer tuzish, yerni taqsimlash tizimi va uni tartibga solish usullari asosida jamiyatda yuzaga kelgan barcha yer munosabatlari yig‘indisidir.*

Jamiyatning yer tuzumi o‘zgarishsiz qolmaydi; u evolutsiya asosida radikal islohotlar asosida, ayrim hollarda esa revolutsiya natijasida ham o‘zgarishi mumkin.

Yer munosabatlari yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning belgili shakllarining paydo bo‘lishi, mustahkamlanishini, yiriklashishi yoki maydalashishi va tugatilishi bilan ham bog‘liq bo‘ladi [9].

Yer tuzish nazariyasi va amaliyotida tez-tez ishlataladigan “yerdan foydalanish” va “yer egaligi” tushunchalari bir xil emas. Ularning har biri bir necha ma’noga ega. O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan yer uchastkalari mulk qilib, egalik qilish yoki foydalanish uchun beriladi. Ular mahalliy boshqaruv organlari (hokimiyatlar) tomonidan, ularning vakolatlaridan kelib chiqib beriladi. Yer uchastkalari davlat, jamoa yoki ayrim fuqarolar mulki bo‘lishi mumkin. Davlat mulki hisoblangan yerlar muddatsiz (doimiy) foydalanish uchun noqishloq xo‘jalik korxonalariga, tashkilotlariga, muassasalariga beriladi.

Umrbod meros qoldirish huquqi bilan va mulk qilib yer uchastkalari dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish, qishloqlarda shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini yuritish, bog‘dorchilik va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq boshqa maqsadlar uchun ajratiladi.

Shunday qilib, “yerdan foydalanish” va “yer egaligi” tushunchalarining birinchi ma’nosi, yer uchastkasining haqiqatan ham foydalanish, egalik qilish yoki mulk huquqlari asosida foydalanilishini bildiradi. Bunda eng katta vakolatga (huquqqa) mulkdorlar, eng kamiga esa – foydalanuvchilar ega. Bu so‘zlarning ikkinchi ma’nosi – yer uchastkalaridan u yoki bu subyekt ega huquqlarga mos foydalanish tartibi va jarayonidir.

Yerdan foydalanishning turlaridan biri ijara hisoblanadi, ya’ni yer uchastkasini boshqa shaxsga (ijarachiga) shartnomaga bo‘yicha belgili to‘lov-ijara haqi evaziga vaqtincha foydalanishga berish. Hozirgi davrda ijaraga beruvchilar mahalliy hokimiyatlar va qishloq xo‘jalik

massivlari hisoblanadi. Va nihoyat, yer tuzish amaliyotida “yerdan foydalanish” tushunchasi ayrim hollarda umumiylar ma’noda ishlatiladi va yerdan foydalanish jarayonini yoki huquqiy maqomiga bog‘liq bo‘lmagan holda foydalanilayotgan uchastkani bildiradi [10].

Jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida doimo o‘zi faoliyat ko‘rsatayotgan huquqni tashkil etishi takomillashtiradi va o‘zgartiradi.

*Huquq deb, yer ustining chegaralangan o‘ziga xos tabiiy va antropogen* (inson tomonidan yaratilgan) xususiyatlarga va resurslarga ega qismiga aytildi; u maydoni, uzunligi, joylashgan o‘rni, shakli va boshqa sifatlari bilan tavsiflanadi.

Hududni tashkil etish – bu uni tartibga solish, aniq ishlab chiqarish yoki ijtimoiy maqsadlarga mos ma’lum tizimga keltirishdir. Yerni va huquqni tashkil etishni aniq talablar uchun moslash bo‘yicha odamlar faoliyati yer tuzish nomini oldi. Shu maqsadda yer massivlari u yoki bu maqsadlar uchun mo‘ljallangan va o‘lchamlarga ega xo‘jalik faoliyatining har xil sohalarida foydalanish uchun bir-birlariga nisbatan belgili tartibda joylshgan uchastkalarga bo‘linadi. Bu uchastkalarda korxonalar, dalalar, yo‘llar, aholi yashash joylari va shunga o‘xhash joylashtiriladi [12].

Yer tuzish yordamida yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarining paydo bo‘lishi, yiriklashtirilishi yoki maydalashtirilishi va tugatilishidek murakkab masalalar yechiladi. Yer tuzish orqali mamlakatimizda yer egalari va yerdan foydalanuvchilar shakllari almashinishi ham sodir bo‘ladi. Bular esa uning yer islohotini o‘tkazishdagi va unda ko‘zlagan maqsadlarga erishishdagi ahamiyati o‘rnini belgilaydi.

*Yer islohoti – bu qonuniy rasmiylashtirilgan yer tuzumini va yer munosabatlarini, yerga bo‘lgan mulkchilik shakllarini o‘zgartirish, yerni bir mulkdordan va foydalanuvchidan ikkinchisiga olib berish va mamlakatda hududiy tuzilishini mos ravishda o‘zgartirish bilan bog‘liq tubdan qayta ko‘rishdir.*

*Shunday qilib yer islohoti – bu davlat tomonidan tartibga solinuvchi va nazorat qilinuvchi, uning yer siyosatining umumiylarini o‘ziga mujassamlashtiruvchi Yangi yer tuzumga o‘tish jarayonidir. Islohot yer egaliklari va yerdan foydalanishlarning, yerga bo‘lgan mulkchilikning yangi shakllariga nisbatan tez va qiyinchiliklarsiz o‘tishni ta’minlovchi huquqiy, iqtisodiy, texnik va tashkiliy choralar majmuasini amalga oshirishni nazarda tutadi.*

*Yer islohoti davrida quyidagi ososiy maslahatlar yechilishi kerak:*

- **yerga bo‘lgan davlat mulkchiligi yakka hokimligini tughish;**
- **fuqoroning yer olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish;**
- **bozor shaklidagi yer munosabatlariga o‘tish;**
- **yer resurslarini boshqarishning oxirlik markazini mahalliy hokimiyat organlariga ko‘chirish (desentralizatsiya);**
- **qonuniy ruxsat etilgan yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarining barcha shakllarining erkin rivojlanishini ta’minlash:**
- **atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ahamiyatli ustuvorliklarni ta’minlash.**

Islohotlarni o‘tkazishda Yangi bozor iqtisodiyoti doirasida yer munosabatlarini tartibga solish uchun ishonchli huquqiy asos yaratuvchi Yangi yer qonunlarini yaratish masalalari birinchi darajali ahamiyatga ega. Xususan, yerni tovar aylanishiga qo‘sishda yer sudlarini, yer banklarini, ro‘yxatga oluvchi chegaralash xizmatlarini va boshqa yer bozori infratizimi elementlarini tashkil etish va qonuniy ta’minlash talab etiladi.

O‘zbekistonda hozir yer islohoti o‘tkazish maqsadida qabul qilin-gan va qilinayotgan yer qonunlari qo‘yidagi tamoyillarga asoslanadi:

- fuqarolarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlari ustuvorligi;
- mahalliy ijrochi hokimiyat organlariga yerni tasarruf etish huquqini berish;
- yerda xo‘jalik yuritish shakllarining ko‘pligi va barchasining tengligi;
- yerdan foydalanishning to‘lovligi;
- yerni muhofaza etish.

Islohotlar davrida yer tuzish yordamida yer mahalliy ijrochi hokimiyat organlari tasarrufiga beriladi dehqon va shaxsiy tomorqa xo‘jaliklariga yer ajratish, bog‘dorchilik va sabzavotchilikni rivojlantirish uchun maxsus yer fondlari tashkil etiladi; uchastkalar yerga bo‘lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarni berish bilan ajratiladi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘sishini, tuproqlar unumdarligining oshishini ta’minalash uchun ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy manfaatlarini ishga solish kerak; shuning uchun yer siyosatining asosi yer munosabatlarini tartibga solishning samarali iqtisodiy mexanizmi bo‘lishi kerak. U mos huquqiy va tashkiliy choralar bilan bog‘langan bo‘lishi va davlatning umumiyligi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga mos kelishi kerak.

Yer islohotining iqtisodiy mexanizmi quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi:

- jamiyatda sodir bo‘layotgan obyektiv iqtisodiy qonunlar va jarayonlar ta’sirini albatta hisobga olish;
- davlatning, ayrim korxonalar va fuqarolarning iqtisodiy manfaatlarini uyg‘unlashtirish;
- qishloq xo‘jaligi yer egaligi va yerdan foydalanishlarini iqtisodiy himoyalash hamda yerkarni buzilishdan saqlash;
- ishlab chiqarish maqsadlariga nisbatan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarining ustuvorligi;
- yerdan oqilona foydalanishni iqtisodiy rag‘batlantirish;
- barcha amalga oshiriladigan tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi [12].

Yuqori rivojlangan davlatlar tajribasi (xususan, Shvetsiya, Germaniya, AQSH) ko‘rsatishicha, yer munosabatlarini tartibga solishning samarali iqtisodiy mexanizmi mos infratizimni (yer banklari, mulklarni baholash va soliqqa tortish xizmatlari, birjalar va shunga o‘xhash) talab etadi. Bundan tashqari, butun tizim yer munosabatlari zanjirining aniq yer mulkdoridan, yer egasi va yerdan foydalanuvchidan boshlab, butun davlatgacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarini qamrab olsagina ishlaydi.

Yer islohotlarini amalga oshirish uchun zarur pul mablag‘lari quyidagi manbaalar hisobiga tashkil topadi:

- yer uchun to‘lovlar (yer solig‘i va ijara haqi);
- noqishloq xo‘jalik maqsadlari uchun olinadigan qishloq xo‘jalik yerkarni uchun qoplama to‘lovlar;
- yerni va boshqa ko‘chmas mulklarni sotishdan ajratmalar;
- yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish bilan bog‘liq yig‘imlar;

- yer siyosatini, yerdan oqilona foydalanishni va uni muhofaza qilishni tashkil etishni amalga oshirishga yo‘naltiriladigan maqsadli davlat **dotatsiyalari** va korxonalar foydalaridan ajratmalar;
- boshqa manbaalar (jarimalar, xalqaro yordam va shunga o‘xhash) [15].

Yer tuzish to‘lovlarini joriy etish, uning mavjud mexanizmlari mukammal emasligiga qaramasdan, yerdan foydalanuvchilarning iqtisodiy manfaatlarini ishga solish va yer islohotini barcha yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirishni tezlashtirish imkonini berdi.

Davlatning yer siyosatini amalga oshirish bo‘yicha ishlarning asosiy og‘irligi mos tarkibga, moddiy-texnik ta’minotga va yer islohotining pishib yetilgan muammolarini huquqiy savodli, texnik to‘g‘ri va iqtisodiy asoslangan holda yechishga qodir malakali mutaxassislarga ega davlat yer tuzish organlari zimmasiga tushadi.

Shu bilan bir vaqtning o‘zida prinsipal yangi vazifalar paydo bo‘lishi sababli, ularning tarkibini va vakolatlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish zarurati tug‘iladi.

## **O‘zbekiston Respublikasining yer fondi va undan foydalanish**

O‘zbekiston Respublikasida yer – davlat mulki, umummilliy boylikdir, undan oqilona fodalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi. Davlat yerning asosiy xo‘jayini sifatida yer fondiga egalik qilish, ulardan to‘g‘ri foydalanishni ham yuritishi zarur. Shunday qilib, kadastrining obyekti – bu mamlakat yagona yer fondidir, ya’ni kimning ixtiyorida bo‘lishidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasidagi barcha yerlardir. Yer fondi yerlardan foydalanishning asosiy maqsadiga qarab quyidagi toifalarga bo‘linadi [3].

- 1) Qishloq xo‘jaligi yerlari – qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun yoki ana shu maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar.
- 2) Aholi punktlarining yerlari (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining yerlari), shahar va posyolka chegaralari doiralaridagi, shuningdek, qishloq aholi punktlari chegaralari doiralaridagi yerlar.
- 3) Sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan yerlar.
- 4) Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan yerlar.

5) Tarixiy – madaniy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan yerlar.

6) O‘rmon fondi yerlari.

7) Suv fondi yerlari.

8) Zaxira yerlari.

Qishloq xo‘jalik ehtiyojlari uchun berib qo‘yilgan yoki shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar deb hisoblanadi. Bu yerlar qishloq xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo‘jalik yo‘llari, kommunikatsiyalar, o‘rmonlar, berk suv havzalari, binolar va inshootlar bilan band bo‘lgan yerlarga ajratiladi. Haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlari, bo‘z yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar (bog‘lar, tokzorlar va boshqalar) egallagan yerlar qishloq xo‘jaligi yerlari jumlasiga kiradi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar doimiy yoki vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish maqsadlarida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish kooperativlariga (shirkatlarga), boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga, fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va yuritish dehqon xo‘jligini, xususiy bog‘dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish, jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi uchun Respublika fuqarolariga, yordamchi qishloq xo‘jaligini yuritish uchun qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga beriladi.

Qishloq xo‘jalik yerlarini irrigatsiya va suvdan foydalanish tizimiga asoslangan sun‘iy sug‘orish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi va yerlardan foydalanish hamda ular unumdorligini oshirishning shartidir. Qishloq xo‘jaligida foydalanish va sug‘orishni ta‘minlay oladigan sug‘orish manbasi bilan bog‘langan doimiy yoki muvaqqat sug‘orish tarmog‘iga ega bo‘lgan yerlar sug‘oriladigan yerlar jumlasiga kiradi. Sug‘oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinadi, ularni sug‘orilmaydigan yerlar sarasiga o‘tkazish alohida hollarda, tuproq-meliorativ va iqtisodiy sharoitlarni hamda yerkarning suv bilan ta‘minlanganligini, ulardagi mavjud suv resurslarini va bu suvlarga belgilangan me‘yorlashni e’tiborga olib, viloyat hokimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Shahar va posyolka doirasidagi barcha yerlar shaharlar va posyolkalar yerlariga kiradi. Qishloq aholi punktlarining yerlariga yer

tuzish tarkibida ana shu punktlar uchun belgilab qo‘yilgan chegaralari doirasidagi hamma yerlar kiradi.

Shahar va posyolkalar yerlari tarkibiga shahar qurilishi yerlari, umumiy foydalanishdagi yerlar, qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar, daraxtzorlar egallagan yerlar, sanoat, transport, aloqa, mudofaa yerlari va boshqa maqsadga mo‘ljallangan yerlar, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekratsion va tarixiy-madaniy maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar, suv fondi yerlari, zaxira yerlar kiradi. Qishloq aholi punktlarining yerlariga qishloq va ovul o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tassarufidagi, qishloq aholi punktlarining qishloq xo‘jaligi hamda o‘rmon xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari egaligidagi yerlari kiradi.

Sanoat yerlari jumlasiga sanoat korxonalariga, jumladan undirma sanoat, energetika korxonalariga ishlab chiqarish va yordamchi binolar hamda inshootlar qurilishiga doimiy foydalanish uchun berib qo‘yilgan yerlar kiradi. Transport yerlari jumlasiga temir yo‘l, ichki suv transporti, avtomobil, havo va quvur transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga transport inshootlari, qurilmalari va boshqa obyektlarni ishlatish, saqlab turish, qurish, qayta qurish, ta’mirlash, takomillashtirish va rivojlantirish sohasida ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun doimiy foydalanishga berib qo‘yilgan yerlar kiradi. Aloqa yerlari jumlasiga aloqa liniyalarini hamda tegishli inshootlarni joylashtirish uchun aloqa, radio eshittirish, televideniya va axborot korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy foydalanish uchun berib qo‘yilgan yerlar kiradi.

Qurolli kuchlar chegara, ichki va temir yo‘l qo‘shinlarining harbiy qismlari, harbiy o‘quv yurtlari, korxonalari, muassasalari va tashkilotlarning joylashishi hamda doimiy faoliyati uchun berib qo‘yilgan yerlar mudofaa ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan yerlar deb e’tirof etiladi. Boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallangan yerlar jumlasiga korxonalar, muassasalar va tashkilotlar foydalanadigan, qishloq xo‘jaligi yerlari, aholi punktlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya va tarixiy-madaniy ahamiyatga moliy yerlar tarkibiga, shuningdek o‘rmon va suv fondlari tarkibiga kirmagan barcha qolgan yerlar kiradi.

Suv xo‘jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berib qo‘yilgan suv havzalari (daryolar, ko‘llar, suv omborlari va h.k.) gidrotexnika va boshqa suv

xo‘jaligi inshootlari egallab turgan yerlar, shuningdek suv havzalarining qirg‘oqlari va boshqa suv obyektlari bo‘ylab ajratib qo‘yilgan zonadagi yerlar suv fondi yerlari jumlasiga kiradi.

Tabiatni muhofaza qilishga mo‘ljallangan yerlar jumlasiga belgilangan tartibda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga maxsus maqsadlar uchun berilgan davlat qo‘riqxonalar, milliy va dendrologiya bog‘lari, botanika bog‘lari, zakazniklar (ovchilikka mo‘ljallangan yerlar bundan mustasno), tabiat yodgorligi yerlari kiradi. Kasallikning oldini olish va davolashni tashkil etish uchun qulay, tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan, tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanish uchun belgilangan tartibda berib qo‘yilgan yer uchastkalari sog‘lomlashtirish ishlari uchun mo‘ljallangan yerlar jumlasiga kiradi.

Aholining ommaviy dam olish va turizimni tashkil etish uchun tegishli muassasalar va tashkilotlarga berilgan yerlar rekreatsiya uchun mo‘ljallangan yerlardir. Tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanish uchun berib qo‘yilgan tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar, memorial bog‘lar, maqbaralar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari joylashgan yerlar tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar qatoriga kiradi.

O‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berib qo‘yilgan yerlar o‘rmon fondi yerlari deb e’tirof etiladi. Bu yerlarda o‘rmon xo‘jaligi tashkilotlari o‘z faoliyatini mavjud o‘rmonlarni qo‘riqlash, yangi o‘rmonlar barpo qilish, qayta tiklash va o‘rmonlarni muhofaza etish hamda boshqa turdagи ishlар bilan olib boradi.

Fuqarolar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga doimiy egalik qilish hamda foydalanish uchun berilmagan barcha yerlar zaxira yerlaridir. Bunday yerlar jumlasiga doimiy egalik qilish va doimiy foydalanish huquqi tugatilgan yerlar ham kiradi.

Zaxira yerlar tuman, shaharlarning davlat hokimiyat organlari tasarrufida bo‘ladi va qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun egalik qilish, foydalanishga va ijara ga berishga mo‘ljallanadi. Tuman hokimi mahalliy ahamiyatga molik zaxira yerlarining ayrim uchastkalarini o‘z qarori bilan posyolka, qishloq va ovullarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tasarrufiga berishi mumkin.

## **Yer fondining toifalari va ularning tavsifi**

O‘zbekiston Respublikasi yer resurslarining 2015-yil 1-yanvar holati to‘g‘risida Milliy hisobot O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi tomonidan hisobot yilida korxona, muassasa, fermer xo‘jaliklari va tashkilotlarning yerlaridagi barcha o‘zgarishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida hamda tuman, shahar va viloyat hokimlarining qarorlari bilan tasdiqlangan yillik yer hisobotlarini respublika bo‘yicha umumlashtirish natijasida tuziladi [11].

2015-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy chegarasidagi umumiylar maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi. Respublika bo‘yicha korxona, tashkilot, muassasalar, fermer xo‘jaliklari va fuqarolarning foydalanishidagi jami yerlar 44892,4 ming gektarni, shundan sug‘oriladigan yerlar esa 4308,1 ming gektarni yoki umumiylar maydonining 9,6 foizini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi yer fondi yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 8-moddasiga binoan 8 ta toifaga bo‘linadi. Yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi 2-jadvalda va yer fondining yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi 3-jadvalda ko‘rsatilgan.

### **O‘zbekiston Respublikasi yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (2015 -yil 1-yanvar holatiga)**

(ming ga hisobida)

2-jadval

t/r	Yer fondining toifalari	Umumiylar maydoni		Shu jumladan, sug‘oriladigan yerlar	
		Jami	Foiz hisobida	Jami	Foiz hisobida
1	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar	20 417,0	45,48	4 204,9	9,36
2	Aholi punktlarining yerlari	219,6	0,49	50,2	0,11
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar	905,1	2,02	12,4	0,03

4	Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar	76,0	0,17	0,9	0,002
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	9,7	0,02	-	-
6	O‘rmon fondi yerlari	9 752,3	21,72	32,9	0,07
7	Suv fondi yerlari	832,4	1,85	4,6	0,01
8	Zaxira yerlar	12 680,3	28,25	2,2	0,004
	<b>Jami yerlar:</b>	<b>44 892,4</b>	<b>100,0</b>	<b>4 308,1</b>	<b>9,6</b>

Manba: “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi yer fondi yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 8-moddasiga binoan **8 ta** toifaga bo‘linadi. Yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi 3-jadvalda hamda yer fondining yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi 4-jadvalda ko‘rsatilgan.

## O'zbekiston Respublikasidagi jami foydalaniladigan yerlar maydoni, viloyatlar kesimida

(ming ga hisobida)

3-jadval

		Boshqa yerlar	9 754,8	121,6	983,6
Butazorlar		68,3			45,4
	Shu jumladan sug'oriladigan	0,1	0,4	0,2	
	jami	0,1	0,4	0,3	
	Shu jumladan sug'oriladigan	0,9	3,9	1,8	
	O'rmon-zorlar				
	jami	1074,5	3,9	335,1	
	Shu jumladan sug'oriladigan	35,0	35,2	45,4	
	To-mor-qay-er-lari				
	Jami	47,2	47,8	58,5	
	Jami qishloq xo'jalik yerlari				
	Shu jumladan sug'oriladigan	472,7	234,1	227,6	
	jami	5 711,2	256,6	2 770,8	
	Pichan-zorlar va yaylovlari				
	Shu jumladan sug'oriladigan	36,6	0,9		
	jam	5 275,1	21,3	2 543,2	
	Bo'z yerlar				
	Shu jumladan sug'oriladigan	10,2	0,7	6,9	
	jami	10,2	2,8	6,9	
	Ko'p yillik daraxt-zorlar				
	Shu jumladan sug'oriladigan	8,9	29,8	19,9	
	jami	8,9	29,8	19,9	
	Ekin yerlar				
	Shu jumladan sug'oriladigan	417,0	202,7	200,8	
	jami	417,0	202,7	200,8	
	Umumiy yer mydoni				
	Shu jumladan sug'oriladigan	508,7	273,6	275,0	
	jami	16 656,1	430,3	4 193,7	
Respub- lika, shahar va viloyat- larning nomi	Qoraqal- pog'is- ton Respub- likasi				
1	Andijon				
2	Buxoro				
3					

656,4	467,8	780,1	254,9	281,8	568,9	115,4	556,5
							2,1
0,3	0,3	0,1	0,3			0,1	3,7
0,1	0,3	0,6	0,1	0,7		0,1	3,7
4,8	5,5	1,7	4,4	6,1	3,3	4,6	2,7
164,1	155,7	1 263,2	24,1	13,1	233,8	4,5	82,8
18,0	48,9	13,4	39,9	62,7	50,3	15,2	51,4
31,7	79,5	19,4	48,8	86,2	62,5	19,2	62,3
277,8	460,2	108,1	237,8	310,5	272,2	267,9	340,2
1 265,6	2 153,5	8 874,2	390,2	1 295,5	1 144,7	288,4	818,0
	0,1					1,4	
757,8	1 415,3	8 745,6	152,4	793,8	830,9	20,5	436,1
0,7	4,7	6,7	2,3			10,5	0,4
8,2	22,2	6,9	2,3	5,4	0,3	10,5	0,8
15,0	35,0	10,7	41,0	57,7	31,2	7,1	36,7
16,7	37,1	11,1	41,0	61,4	32,6	7,1	45,2
262,1	420,4	90,7	194,5	252,8	241,0	205,3	301,7
482,9	678,9	110,6	194,5	434,9	280,9	250,3	335,9
300,6	514,9	123,5	282,2	379,6	325,8	287,8	398,0
2 117,9	28 56,8	10 937,5	718,1	1 677,3	2 009,9	427,6	1 525,4
Jizzax	Qashqa-daryo	Navoiy	Naman-gan	Samar-qand	Surxon-daryo	Sirdaryo	Toshkent
4	5	6	7	8	9	10	11

	293,9	166,5	25,1	<b>15 027,3</b>
				<b>115,8</b>
0,9	0,1			<b>6,5</b>
0,9	0,1			<b>7,4</b>
13,5	0,3	0,4		<b>53,9</b>
14,7	57,6	0,4		<b>3 427,5</b>
52,9	43,1	4,1		<b>515,5</b>
71,	51,2	7,2		<b>693,0</b>
300,0	222,7	0,4		<b>3 732,2</b>
319,5	332,8	0,4		<b>25 621,4</b>
4,0				<b>43,0</b>
23,5	110,1			<b>21 125,6</b>
	3,8			<b>46,9</b>
	3,8			<b>80,3</b>
48,2	12,9			<b>34,1</b>
48,2	12,9			<b>371,9</b>
247,8	206,0	0,4		<b>3 288,2</b>
247,8	206,0	0,4		<b>4 043,6</b>
367,3	266,2	4,9		<b>4 308,1</b>
700,5	608,2	33,1		<b>44 892,4</b>
12 Farg'ona	Xorazm	Toshkent shahri.	Jami:	
13	14			

**Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar.** Qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berib qo‘yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar qishloq xo‘jaligini yuritish uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo‘jalik yo‘llari, kommunikatsiyalar, o‘rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlarga ajraladi.

Shuningdek, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, bo‘z yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar (bog‘lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko‘chatzorlari, mevazorlar va boshqalar) egallagan yerlar ham qishloq xo‘jaligi yerlari jumlasiga kiradi.

Respublikada qishloq xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlarining fermer xo‘jaliklari bilan birgalikda olganda 2015- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, **82245 ta** bo‘lib, ularga biriktirib berilgan yerlarning umumiylar maydoni **20417,0 ming** hektarni, shu jumladan qishloq xo‘jalik yer turlari maydoni esa **15594,3 ming** hektarni, shundan **3707,5 ming** hektari sug‘oriladigan yerlarni tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududining **45,5 foizini** qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar egallagan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda asosiy vosita hisoblanadi.

Respublika hududida qishloq xo‘jaligi maqsadlariga mo‘ljallangan yerlarning taqsimlanishi tabiiy-iqlim omillariga binoan belgilanadi. Sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yer turlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi 7-jadvalda ko‘rsatilgan.

Aholi punktlarining yerlari. Aholi punktlarining yerlari ma’muriy-hududiy birlik bo‘lib, davlat yer fondining boshqa toifalaridan o‘ziga xos xususiyatlari huquqiy holati, foydalanishning asosiy maqsadiga ko‘ra ajralib turadi, ularga shu maqsadlar uchun qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan shahar (posyolka) va qishloq aholi punktlari yerlari kiritilgan. Aholi punktlari yerlarning 2015- yil 1 -yanvar holatiga umumiylar maydoni **219,6 ming** hektarni yoki jami yerlarning **0,49 foizini** tashkil qiladi (5-jadval).

**Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarining yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi**

(ming ga hisobiga)

4-jadval

<b>O‘rmonzorlar</b>	<b>Shu jumladan: sug‘oriladigan</b>	<b>0,6</b>
	<b>jami</b>	<b>98,2</b>
<b>Meliorativ qurilish holatidagi yerlar</b>		
Tomorqa hamda bog‘dor-chilik uzumchilik va zabza-votchilik uyuşmaları yerlari	Shu jumladan sug‘oriladigan	29,3
Jami qishloq xo‘jalik yerlari	Shu jumladan sug‘oriladigan	469,8
Pichanzorlar va yaylovlar	Shu jumladan sug‘oriladigan	36,4
Bo‘z yerlar	Shu jumladan sug‘oriladigan	1652,0
Ko‘p yillik daraxtzorlar	Shu jumladan sug‘oriladigan	9,4
Ekin yerlar	Shu jumladan sug‘oriladigan	8,6
Umumiylar	Shu jumladan sug‘oriladigan	415,4
<b>Respublika, shahar va viloyatlarning nomi</b>	<b>jami</b>	<b>499,7</b>
<b>tur</b>	<b>jami</b>	<b>3 219,1</b>
1	Qoraqpog‘iston Respublikasi	

74,2	755,0	219,0	283,2	495,5	168,0	196,8	268,6
5,1							
2,0	0,9	3,7	4,3	1,1	2,7	2,5	1,6
2,0	7,9	10,0	14,1	1,1	6,4	4,6	29,4
1,0	4,0	6,1	19,1	2,1	0,8	3,5	1,3
30,7	44,8	15,9	45,9	12,8	33,2	57,9	47,6
41,0	57,2	28,4	74,4	18,4	40,2	79,3	58,5
233,2	226,4	276,4	457,6	107,0	234,8	308,7	270,4
254,5	25 51,9	1 183,3	2 000,7	35 96,7	284,2	1 221,7	1 009,8
0,9			0,1				
20,1	2 325,5	679,5	1 266,9	3 469,5	49,4	725,2	698,7
0,7	6,5	0,7	4,7	6,6	2,3		
2,8	6,5	8,1	22,0	6,7	2,3	5,4	0,3
29,2	19,5	14,4	34,4	10,2	39,4	56,7	30,5
29,2	19,5	15,2	36,4	10,6	39,4	57,2	31,6
-	-	219,2	257,0	19,7	-	181,9	39,3
202,4	200,4	261,3	418,4	90,2	193,1	252,0	239,9
265,9	272,1	296,0	507,8	120,9	270,7	369,1	319,6
372,7	3 381,1	1 446,8	23 91,5	4 103,8	499,6	1 505,9	1 367,6
Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqa-daryo	Navoiy	Naman-gan	Samarqand	Surxon-daryo
2	3	4	5	6	7	8	9

65,8	141,8	177,5	110,1	<b>3 894,7</b>
1,0				<b>31,3</b>
1,9	1,4	7,0	0,2	<b>29,9</b>
1,9	7,4	7,0	19,4	<b>209,4</b>
3,7	0,2	1,6	1,1	<b>70,2</b>
13,9	45,0	49,0	41,5	<b>467,5</b>
17,2	53,8	64,6	48,7	<b>617,1</b>
266,3	337,3	298,2	221,0	<b>3707,5</b>
285,4	576,7	313,7	229,9	<b>15 594,3</b>
	1,3	3,9		<b>42,6</b>
19,1	200,0	19,4	8,9	<b>11 134,2</b>
10,2	0,4		3,8	<b>45,3</b>
	10,2	0,6	3,8	<b>78,1</b>
7,1	35,3	47,1	12,5	<b>344,9</b>
-	32,1	-	-	<b>749,2</b>
249,0	300,3	247,2	204,7	<b>0,4 3 274,7</b>
249,0	332,4	247,2	204,7	<b>0,4 4 023,9</b>
282,1	383,7	354,2	262,7	<b>0,4 4 204,9</b>
374,0	780,9	564,4	409,2	<b>0,4 20 417,0</b>
10	Sirdaryo	Toshkent	Farg'ona	Xorazm
11	12	13	14	<b>Jami:</b>

**Aholi punktlari yerlarning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha taqsimlanishi**

(ming ga hisobiga)

5-jadval

t/ r	Respub- lika, shahar va viloyatlar- ning nomi	Umumiy yer maydoni	Ekin yerlar	Ko‘p yillik daraxt- zorlar	Bo‘z yerlar	Pichan- zorlar va yaylov- lar	Jami qishloq xo‘jalik yerlari	Tomorqa yerlari	jami	O‘rmon- lar	Bog‘dor- chilik, uzumchi- lik va sab- zavotchi- lik uyush- malari yerlari	Butazorlar	Boshqa yerlar
													Shu jumladan sug‘oriladigan
1	Qoraqal- pog‘iston Respublikasi	37,1	5,9	0,2	0,2								20,0
2	Andijon	12,0	4,7										5,0

3	Buxoro	7,8	0,7			0,1	0,1				0,1	0,1	1,3					6,4		
4	Jizzax	10,3	2,1							0,4		0,4		3,0	0,1	0,1	0,1		6,7	
5	Qashqa-daryo	11,4	3,9	0,5	0,4	0,1	0,1			0,3		0,9	0,6	4,9	0,3	0,1	0,2	0,2	5,1	
6	Navoiy	15,8	0,7			0,1	0,1			4,2		4,3	0,1	1,0					10,5	
7	Namangan	17,6	6,9	0,2	0,2	0,3	0,3			0,1		0,6	0,5	8,1	0,1	0,1			8,8	
8	Samarqand	19,2	4,7			0,2	0,2			0,7		0,9	0,1	6,4	0,1	0,1	0,1	0,1	11,7	
9	Surxondaryo	10,6	2,4			0,1	0,1					0,1	0,1	3,3					7,2	
10	Sirdaryo	8,0	2,1											1,9	0,8	0,8	0,1	0,1	5,2	
11	Toshkent	38,2	6,4	0,2	0,2					1,3		1,5	0,2	7,8	0,8	0,3			28,1	
12	Farg‘ona	16,7	4,2	0,1	0,1							0,1	0,1	6,7	0,3	0,3	0,1	0,1	9,5	
13	Xorazm	6,4	1,5											2,3	0,1	0,1			4,0	
14	Toshkent shahri.	8,5	4,1											7,2					1,3	
	<b>Jami:</b>	219,6	50,2	1,2	1,1	0,9	0,9			12,2		14,3	2,0	72,4	2,8	2,1	0,6	0,5		129,5

**Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar.** Bunday yerlar jumlasiga sanoat korxonalariga shu jumladan kon sanoati, energetika korxonalariga ishlab chiqarish va yordamchi binolar hamda inshootlar qurish uchun doimiy foydalanishga berilgan, temir yo‘l, ichki suv transporti, avtomobil, havo va truboprovod transporti; aloqa liniyalarini hamda ularga tegishli inshootlarni joylashtirish uchun aloqa, radio eshittirish, televideniya va axborot, qurolli kuchlar, chegara, ichki ishlar va temir yo‘l qo‘sishinlarining harbiy qismlari, harbiy o‘quv yurtlari, korxonalar, muassasalari va tashkilotlari joylashgan, mudofaa ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan yerlar va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar kiradi. Sanot, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlarning 2015 -yil 1-yanvar holatiga umumiylar maydoni **905,1 ming** hektar yoki Respublika yer fondining **2,02 foizini** tashkil qiladi (6-jadval). Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlarning taqsimlanishi 6-jadvalda ko‘rsatilgan.

### **Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar**

(ming ga hisobida)  
6-jadval

t/ r	Respubli- ka, shahar va viloyatlar ning nomi	Umumiy yer maydoni	Ekin yerlar	Ko‘p yillik daraxtzorlar		Mevali ko‘chatzorlar va boshqa daraxtzorlar	Pichanzorlar va yaylovlari	Jami qishloq xo‘jalik yerlari	Tomorqa hamda bog‘dorchilik- uzumchilik va sabzavotchilik uyushmalarining yerbasi	Ormonzorlar	Boshqa yerlar						
				Shu jumladan													
				jami	Bog‘lar												
1	Qoraqal- pog‘iston Respublikasi	186,9						0,1	0,1	0,1	186,6						
2	Andijon	17,7								0,4	17,3						
3	Buxoro	141,5	0,1	0,2	0,1		0,1	55,9	56,2	0,3	0,6						
											84,4						

4	Jizzax	25,8	0,1					7,6	7,7		0,4	17,7	
5	Qashqadaryo	66,0	0,1	0,2	0,1	0,1		9,0	9,3	0,1	2,9	53,7	
6	Navoiy	55,3		0,1	0,1			1,2	1,3	0,6		53,4	
7	Namangan	51,0	1,0	0,7	0,6	0,1		15,6	17,3	0,3	0,2	33,2	
8	Samarqand	82,8	0,1	0,1	0,1			54,2	54,4	0,6	0,3	27,5	
9	Surxon-daryo	103,5	0,1					17,1	17,2		8,1	78,2	
10	Sirdaryo	10,6	0,2						0,2			10,4	
11	Toshkent	75,2	1,9	0,6	0,5	0,1		3,2	5,7	4,2	0,5	64,8	
12	Farg‘ona	49,9	0,1	0,2	0,2			0,8	1,1	0,9	0,1	47,8	
13	Xorazm	16,9	0,5	0,2	0,1		0,1	0,1	0,8	0,2	1,7	14,2	
14	Toshkent shahri	22,0										22,0	
	<b>Jami:</b>	905,1	4,2	2,3	1,8	0,3		0,2	164,8	171,3	7,7	14,9	711,2

**Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar.** Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerkarta davlat qo‘riqxonalari, milliy, tarixiy, tabiiy va yodgorlik bog‘lari, zakazniklar, tabiat yodgorliklari, dendrologiya bog‘lari, botanika bog‘lari, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo‘lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalanishga berilgan yer uchastkalari kiradi. Bu toifadagi yerlar maydonining asosiy qismini qo‘riqxonalar va milliy hamda dendrologiya bog‘lari egallaydi. Bularning barchasi alohida muhofaza etiladigan hududlar hisoblanadi va ularning foydalanish maqsadiga zid faoliyat ta’qiqlanadi. Maqsadi – tabiiy jarayon va hodisalarni, o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning nodir va noyob turlarini tabiiy holatda saqlab qolish, sonini ko‘paytirish va o‘rganish, tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan yerdarda kasalliklarning oldini olish va davolashni tashkil etish, turizm va aholining ommaviy dam olishini tashkil etishdan iboratdir.

Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerkartarning 2015 yil 1 yanvar holatiga umumiy maydoni 76,0 ming gettarni tashkil qiladi.

Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerkartarning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi 7-jadvalda ko‘rsatilgan.

**Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yershing Qoraqalpog‘iston Respublikasi, shahar va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi**

(ming ga hisobida)

7-jadval

t/ r	Respub- lika, shahar va viloyatlar- ning nomi	Umumiyl yer maydoni	Elkin yerlar	Ko‘p yillik daraxtzorlar		Shu jumladan	Mevali ko‘chatzorlar va boshqa daraxtzorlar	Pichanzorlar	Yaylovlar	Jami qishloq xo‘jalik yerlari	Ormonzorlar	Boshqa yerlar
				Bog‘lar	Uzumzorlar							
1	Qoraqalpo g‘iston Respubli- kasi	0,4	0,1							0,1		0,3
2	Andijon	0,7		0,1	0,1					0,1	0,1	0,5
3	Buxoro	0,1										0,1
4	Jizzax	64,4		0,1	0,1				7,1	7,2	0,2	57,0
5	Qashqada- ryo											
6	Navoiy	8,5	0,1						8,2	8,3		0,2
7	Namangan	0,2										0,2
8	Samarqand	0,1										0,1
9	Surxonda- ryo	0,2										0,2
10	Sirdaryo	0,1										0,1
11	Toshkent	0,4							0,1	0,1	0,1	0,2
12	Farg‘ona	0,3									0,1	0,2
13	Xorazm	0,3		0,1	0,1					0,1		0,2
14	Toshkent shahri	0,3									0,3	
	<b>Jami:</b>	76,0	0,2	0,3	0,3				15,4	15,9	0,8	59,3

**Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar.** Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar jumlasiga trixiy-madaniy qo‘riqxonalar, memorial bog‘lar, mozorlar, arxeologiya, tarix va madaniyat yodgorliklar tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan yerlar kiradi va alohida muhofaza qilinadi.

### **Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar**

(ming ga hisobida)

8-jadval

t/r	<b>Respublika, shahar va viloyatlar- ning nomi</b>	<b>Umumiyl yer maydoni</b>	<b>Ekin yerlar</b>	<b>Ko‘p yillik daraxtzorlar</b>				<b>Bo‘z yerlar</b>	<b>Pichanzorlar va vaylovlar</b>	<b>Jami qishloq xo‘jalik yerlari</b>	<b>Boshqa yerlar</b>			
				<b>Shu jumladan</b>										
				<b>Jami</b>	<b>Bog‘lar</b>	<b>Uzumzorlar</b>	<b>Tutzorlar</b>	<b>Mevali ko‘chat- zorlar va boshqa daraxtzorlar</b>						
1	Qoraqalpo- g‘iston Respublikasi	0,2										0,2		
2	Andijon	0,1										0,1		
3	Buxoro	0,4										0,4		
4	Jizzax	1,9										1,9		
5	Qashqadaryo	0,7										0,7		
6	Navoiy	0,7										0,7		
7	Namangan	2,3										2,3		
8	Samarqand	0,4										0,4		
9	Surxondaryo	0,5										0,5		
10	Sirdaryo													
11	Toshkent	1,9										1,9		
12	Farg‘ona													
13	Xorazm	0,1										0,1		
14	Toshkent shahri	0,5										0,5		
	<b>Jami:</b>	<b>9,7</b>										<b>9,7</b>		

Respublikamizda tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar juda ko‘p bo‘lib, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, alohida

muhofazaga muhtoj bo‘lib, unda jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan trixiy-arxeologik, me’morlik va badiiy hamda madaniy yodgorliklar saqlanadi.

Jumladan, Buxoro, Samarqan, Xiva, Qo‘qon, Shahrisabz va Termiz shaharlarida joylashgan tarixiy topilma va arxeologik mabalar Respublikamiz hududida takrorlanmas boyliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday betakror tarixiy yodgorliklar xalqimiz va ona yerimizning oltin fondi sifatida asrab-avaylab kelinmoqda..

Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarning 2015-yil 1-yanvar holatiga umumiylar maydoni 9,7 ming gektarni tashkil qiladi. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi 10-jadvalda ko‘rsatilgan.

**O‘rmon fondi yerlari.** O‘rmon fondi yerlari – alohida ekologik ahamiyatga ega bo‘lib, o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek, o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlardir. O‘rmon fondi yerlarining 2015-yil 1-yanvar holatiga umumiylar maydoni **9752,3 ming** gektarni yoki jami yer maydonining **21,7 foizini** tashkil qiladi. O‘rmon fondi yerlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi 9-jadvalda ko‘rsatilgan.

### **O‘rmon fondi yerlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi**

(ming ga hisobiga)  
9-jadval

t/r	Respublika, shahar va viloyatlar-ning nomi	Umumiy yer maydoni	Ko‘p yillik daraxtzorlar				Bo‘z yerlar	Pichanzorlar va yaylovlar	Jami qishloq xo‘jalik yerlari	Tomorqa yerlar	O‘rmonzorlar	Boshqa yerlar	
			Ekin yerlar	jam'i	Bog‘lar	Uzumzorlar	Tutzorlar	Mevali ko‘chatzor-lar va boshqa daraxtzorlar					
1	Qoraqalpo-g‘iston Respublikasi	4 489,2	1,3	0,3	0,1			0,2	583,4	585,4	0,1	960,3	2 943,4

	2	Andijon						
	3	Buxoro						
	4	Jizzax						
	5	Qashqadar-yo						
	6	Navoiy						
	7	Namangan						
	8	Samarqand						
	9	Surxondar-yo						
	10	Sirdaryo						
	11	Toshkent						
	12	Farg‘ona						
	13	Xorazm						
	14	Toshkent shahri						
	<b>Jami:</b>							
97 52,3	0,1	87,5	12,8	586,9	8,0	321,0	30,0	123,8
10,8	0,1	0,1	1,3	0,9	1,5	0,4	0,4	2,8
8,9	0,1	0,8	0,9		0,6	3,9	0,3	0,3
7,1		0,8	0,8		0,1	3,8	0,2	0,2
0,1								0,1
0,3					0,1		0,1	
1,4	0,1		0,1		0,4	0,1	0,1	0,1
1,6			0,1	0,3			0,1	0,2
2 981,6	50,9		226,0	1,3	68,0	10,3	86,6	1 595,1
3 002,9	51,1	0,9	228,3	2,5	70,1	14,6	86,9	1 595,9
2,0		0,1	0,2	0,1	0,5	0,3	0,2	0,2
3 153,8	0,1	32,7	7,1	73,8	1,8	171,3	7,7	17,1
3 593,6	3,7	4,7	284,6	3,6	79,1	7,4	19,6	36,7

**Suv fondi yerlari.** Suv havzalari, daryolar, ko‘llar, suv omborlari, gidrotexnik va boshqa suv xo‘jaligi inshootlari egallab turgan, shuningdek suv havzalari hamda suv obyektlarining qirg‘oqlari bo‘ylab ajratilgan mintaqadagi suv xo‘jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar suv fondi yerlari toifasiga kiradi. Suv fondi yerlari 2015- yil 1-yanvar holatiga jami **832,4 ming** gektarni yoki umumiy yer

maydonining **1,85 foizini** tashkil qiladi. Suv fondi yerlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanish 10-jadvalda

**Suv fondi yerlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi,  
Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi**

(ming ga hisobida)

10-jadval

t/r	Respublika, shahar va viloyatlar- ning nomi	Umumiylar maydoni	Ekin yerlar	Ko‘p yillik daraxtzorlar			Bo‘z yerlar pichanzorlar va yaylovlardan	Jami qishloq xo‘jalik yerlari	Tomorqa yerlar	O‘rmonzorlar	Boshqa yerlar				
				Shu jumladan											
				jamii	Bog‘lar	Uzumzorlar	Tutzorlar								
1	Qoraqalpo- g‘iston Respublikasi	57,3						0,1	0,1	0,9	56,3				
2	Andijon	18,8	0,2	0,3	0,2		0,1		0,5	0,1	18,2				
3	Buxoro	66,3									66,3				
4	Jizzax	310,3	0,1					1,9	2,0		308,3				
5	Qashqadaryo	35,7	0,1	0,1	0,1			0,7	0,9		34,8				
6	Navoiy	183,5						6,6	6,6	0,1	176,8				
7	Namangan	21,7	0,2	0,3	0,1		0,2		0,5	0,1	20,8				
8	Samarqand	27,1	0,5					0,7	1,2	0,2	25,4				
9	Surxondaryo	24,0	0,1						0,1	0,1	23,7				
10	Sirdaryo	26,8	0,2						0,2		26,6				
11	Toshkent	16,2								0,1	16,1				
12	Farg‘ona	20,3	0,3	0,1	0,1				0,4	0,1	19,8				
13	Xorazm	23,3	0,7						0,7	0,1	22,4				
14	Toshkent shahri	1,1									1,1				
<b>Jami:</b>		<b>832,4</b>	<b>2,4</b>	<b>0,8</b>	<b>0,5</b>		<b>0,3</b>	<b>10,0</b>	<b>13,2</b>	<b>0,5</b>	<b>2,1</b>	<b>816,6</b>			

**Zaxira yerlar.** Zaxira yerlarga egalik qilish, foydalanish hamda ijara maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan hamda boshqa yer toifalarida hisobga olinmagan barcha yerlar kiradi.

Zaxira yerlar asosan qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga berishga mo‘ljallanadi. 2015-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra zaxira yerlarining umumiy yer maydoni **12680,3 ming** gektar yoki umumiy yer maydonining **28,2 foizini** tashkil etadi. Zaxira yerlarning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi, quyidagi 11-jadvalda ko‘rsatilgan.

### **Zaxira yerlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, shahar va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi**

(ming ga hisobida)

11-jadval

t/r	<b>Respublika, shahar va viloyat- larning nomi</b>	<b>Umumiy yer maydoni</b>	<b>Ko‘p yillik daraxtzorlar</b>			<b>Bo‘z yerlar</b>	<b>Pichanzorlar va yaylovlar</b>	<b>Jami qishloq xo‘jalik yerlari</b>	<b>O‘rmonzorlar</b>	<b>Boshqa yerlar</b>	
			<b>Ekin yerlar</b>	<b>jami</b>	<b>Shu jumladan</b>						
Bog‘lar	Uzumzorlar	Tutzorlar									
1	Qoraqalpo- g‘iston Res- publikasi	8 665,9				0,4	3 034,3	3 034,7	15,0	5 616,2	
2	Andijon	6,3	0,1	0,2	0,2		1,1	1,4		4,9	
3	Buxoro	0,8								0,8	
4	Jizzax	5,4	0,5	0,1	0,1		1,2	1,8		3,6	
5	Qashqa- daryo	3,8					0,4	0,4		3,4	
6	Navoiy	3 675,3	0,2				3 660,9	3 661,1		14,2	
7	Namangan	1,9					0,7	0,7		1,2	
8	Samarqand	11,8					2,7	2,7	0,1	9,0	
9	Surxondaryo	182,5		0,3	0,3		47,1	47,4	24,9	110,2	
10	Sirdaryo	0,1					0,1	0,1			
11	Toshkent	25,7	0,1				5,6	5,7	0,1	19.9	
12	Farg‘ona	36,1					3,3	3,3		32,8	
13	Xorazm	64,5					50,2	50,2	3.6	10,7	
14	Toshkent shahri	0,2								0,2	
	<b>Jami:</b>	<b>12 680,3</b>	<b>0,9</b>	<b>0,6</b>	<b>0,6</b>		<b>0,4</b>	<b>6 807,6</b>	<b>6 809,5</b>	<b>43,7</b>	<b>5 827,1</b>

**Yer fondining toifalari va yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi.**  
O‘zbekiston Respublikasining yer fondi, Yuqorida e’tirof etilganidek, yerdan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra 8 ta toifaga bo‘linadi hamda uning tarkibida asosiy yer turlari quyidagilar:

1. Qishloq xo‘jaligi yerkari (ekin yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar, bo‘z yerlar, pichanzor va yaylovlar).
2. Tomorqa yerlar.
3. O‘rmonzorlar.
4. Bog‘dorchilik-uzumchilik va sabzavotchilik uyushmalari yerkari.
5. Meliorativ holatini yaxshilash bosqichidagi yerkari.
6. Boshqa yerkari.

Yer fondi tarkibining asosiy yer turlari bo‘yicha 2010-yilning 1-yanvaridan 2015-yil 1-yanvargacha, ya’ni oxirgi 6 yil davomida taqsimlanishi va o‘zgarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar quyidagi 12-jadvalda ko‘rsatilgan.

**Yer fondi tarkibining asosiy yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi**  
(ming ga hisobida  
12-jadval)

t/r	Yer turlari	2010-yil 1-yanvar holatiga	2011-yil 1 -yanvar holatiga	2012-yil 1 -yanvar holatiga	2013 - yil 1 -yanvar holatiga	2014 - yil 1 -yanvar holatiga	2015- yil 1 -yanvar holatiga	2014-yil 01.01 2015 yil 01.01 farqi+
	Qishloq xo‘jalik yer turlari	2 528,0	25 258,5	25 252,2	25 251,5	25 140,5	25 621,4	480,9
	shu jumladan, sug‘oriladi-gani	3 740,3	3 739,1	3 738,8	3 738,2	3 740,1	3 732,2	-7,9
	Ekin yerlar	4 073,1	4 071,0	4 064,7	4 062,5	4 055,3	4 043,6	-11,7
	shu jumladan, sug‘orila-digani	3 315,9	3 313,1	3 307,3	3 305,2	3 298,5	3 288,2	-10,3
	Ko‘p yillik daraxtzorlar	347,8	350,9	356,7	358,3	367,9	371,9	+4,0

	shu jumladan, sug‘orila- digani	333,7	336,1	341,5	343,0	351,5	354,1	+2,6
	Bo‘z yerlar	82,5	80,5	80,4	80,4	80,4	80,3	-0,1
	shu jumladan, sug‘orila- digani	47,7	46,9	47,0	47,0	47,1	46,9	-0,2
	Pichanzor- lar va yaylovlar	20 776,6	20 756,1	20 750,4	20 750,3	20 636,9	21 125,6	+488,7
	shu jumladan, sug‘oriladi- gani	43,0	43,0	43,0	43,0	43,0	43,0	
	Tomorqa yerlar	692,7	691,1	691,4	691,7	692,2	693,0	+0,8
	shu jumladan, sug‘orila- digani	516,3	514,6	514,6	514,8	514,9	515,5	+0,6
	O‘rmon- zorlar va butazorlar	3 312,0	3 328,6	3 334,9	3 335,3	3 453,4	3 543,3	+89,9
	shu jumladan, sug‘orila- digani	52,4	52,8	52,5	52,6	52,8	53,9	+1,1
	Bog‘dorchi- lik-uzum- chilik va sabzavot- chilik uyushmalari yerlari	7,6	7,4	7,4	7,4	7,4	7,4	0
	shu jumladan, sug‘orila- digani	6,7	6,6	6,5	6,6	6,6	6,5	-0,1

Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	74,1	73,0	72,9	72,7	72,7	72,6	-0,1
Boshqa yerlar	15 043,9	15 051,7	15 051,5	15 051,7	15 044,1	14 954,7	-89,4
<b>Jami yerlar:</b>	<b>44 410,3</b>	<b>44 892,4</b>	<b>+482,1</b>				
shu jumladan, sug‘oriladigani	4 315,7	4313,1	4 312,4	4 312,2	4 314,4	4 308,1	-6,3

## Qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 43-moddasiga binoan, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berib qo‘yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar hisoblanadi [2].

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar qishloq xo‘jaligini yuritish uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo‘jalik yo‘llari, kommunikatsiyalar, o‘rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlarga ajratiladi.

Haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, bo‘z yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar (bog‘lar, uzumzorlar, tutzorlar va hokazo.) egallagan yerlar qishloq xo‘jaligi yerlari jumlasiga kiradi (1-rasm, 2-rasm).




1-rasm. Eroziyaga uchragan adir yerlarda uzumzorlarni barpo qilish.

Tizimli tarzda ishlanadigan hamda ko‘p yillik o‘tlar shudgor qilib qo‘yilgan yerlarni qo‘sghan holda qishloq xo‘jalik ekinlari uchun doimiy ravishda foydalanadigan yer turi haydalma yerlar hisoblanadi. Bunday yerlar mamlakat yer fondining 9,1 foizini tashkil etadi.

2-3 yildan ko‘p bo‘lmagan vaqt mobaynida pichanzor va yaylovlar ekilgan qishloq xo‘jalik ekinlari bilan band bo‘lgan tubdan yaxshilash maqsadlarida haydalgan hamda bog‘lar qator oralariga ekinlar ekish uchun foydalanilayotgan yerlar haydalma yerlarga kirmaydi [7].

Ko‘p yillik daraxtzorlarga bog‘lar, uzumzorlar, tutzorlar, rezavor mevazorlar, mevali daraxtlar ko‘chatzorlari va boshqalar kiradi. Bunday yerlar respublika yer fondining 1,4 foizini tashkil qiladi.

Ilgari haydalma yer sifatida foydalanib, bir yildan ortiq kuz faslidan boshlab qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish uchun foydalanilmayotgan, shuningdek, shudgor qilib qo‘yish uchun ajratilmagan yer turi bo‘z yerdadir. Bunday yerlar mamlakat umumiy yer maydonining 0,2 foizini tashkil etadi.



2-rasm. Adir yerdan unumli foydalanish uchun uzumzorlar barpo qilish.

Tizimli tarzda pichan o‘rish maqsadida foydalaniladigan yerlar pichanzorlarni tashkil etadi. Bunday yerlar mamlakat Yangi yer

maydonning 0,4 foizini egallagan. Yaylov chorvachiligini rivojlan-tirish, ya’ni chorva mollari haydab boqiladigan yerlar yaylovlardir. Respublikamiz umumiy yer maydonining yarmidan oshiqrog‘ini (50,2 foiz) tashkil etgan bunday yer maydonlari asosan cho‘l tog‘ oldi va tog‘ mintaqalarida joylashgan.

Qishloq xo‘jaligi yerlari ichida ayniqsa sug‘oriladigan yerlar mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. “Yer kodeksi” ning 44-moddasi bo‘yicha “Qishloq xo‘jaligida foydalanish va sug‘orish uchun yaroqli bo‘lgan, suv resurslari shu yerlarni sug‘orishni ta’minlay oladigan sug‘orish manbai bilan bog‘langan yerlar doimiy yoki muvaqqat sug‘oriladigan yerlar jumlasiga kiradi”.

Tuproq unumdorligini oshirish hamda yerdan foydalanishni jadallashtirishning muhim omillaridan biri – bu sug‘orishdir. Madomiki, respublika arid iqlim mintaqasida joylashgan ekin yerlarini sug‘orish uchun foydalanishni tashkil etish muhim iqtisodiy ahamiyatga egadir. Texnik ekinlar, jumladan paxta, sabzavot va poliz ekinlari, shuningdek yem-xashak ekinlari bu yerda faqatgina sug‘orish sharoitidagina yetishtiriladi. Ko‘p yillik daraxtzorlarning aksariyat qismi sug‘oriladigan yerkarta joylashtirilgan. Donli ekinlarning ham aksariyat qismi sug‘oriladigan maydonlarda yetishtiriladi. Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda sug‘oriladigan yerkarning ahamiyati kattadir [12].

Sug‘oriladigan yerlarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1) doimiy ravishda sug‘oriladigan va 2) shartli ravishda sug‘oriladigan.

Doimiy ravishda sug‘oriladigan yerkarta shunday yer uchastkalari kiradiki, bunda qishloq xo‘jalik ekinlari va ko‘p yillik daraxtzorlar belgilangan me’yorlarda sug‘orish suvi bilan doimiy ravishda ta’milanadi. Sug‘orish suvi ko‘p miqdorlarda mavjud bo‘lgan yillari ekinlar sug‘orish suvi bilan qisman ta’milanadigan yer maydonlari shartli sug‘oriladigan yerkardir.

Sug‘oriladigan yerkarning maxsus muhofaza qilinishi lozim. Bunday yerlarni sug‘orilmaydigan yerkarning qatorida o‘tkazish alohida hollarda, joyning tuproq-meliorativ va iqtisodiy sharoitlarni, shu bilan bir qatorda yer maydonlarini suv bilan ta’milanganligini, ulardagi mavjud suv resurslarini va bu suvlarga belgilangan limitlarni inobatga olib, Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan tarzda viloyat hokimining qatoriga binoan amalga oshiriladi. Bunday sug‘oriladigan yerkardan

foydalinish bo‘yicha so‘z yuritilganda e’tirof etish joizki, ayniqsa alohida qimmatga ega bo‘lgan sug‘oriladigan yerdardan qishloq xo‘jaligida oqilonan foydalinishga katta e’tibor berish zarur, bunday yerlarda odatda, kadastr baholanishiga ko‘ra o‘rtacha tuman bonitet balidan 20 foizdan ortiq bo‘lgan sug‘oriladigan yelar kiradi. Masalan, tuman bo‘yicha sug‘oriladigan yelarning o‘rtacha bonitet 60% ni tashkil etadi. Ushbu tuman hududida 72 va undan ortiq bonitet ballariga ega bo‘lgan barcha maydonlar alohida qimmatga ega bo‘lgan sug‘oriladigan yelarni tashkil etadi. Bunday yelar, qonunga binoan, maxsus muhofaza qilinishi lozim va ularni sug‘orilmaydigan yelar toifasiga o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Alohida qimmatga ega bo‘lgan unumdar sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yelarini noqishloq xo‘jalik korxonalari, binolar va inshootlar qurilishi uchun ajratishga alohida hollarda Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan yo‘l qo‘yiladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yelar quyidagilarga beriladi:

- qishloq xo‘jaligi kooperativlariga (shirkat xo‘jaliklariga) boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga – tovar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yuritish uchun;
- tajriba – ishlab chiqarish, o‘quv, o‘quv – tajriba va o‘quv – ishlab chiqarish xo‘jaliklari, ilmiy tadqiqot va boshqa qishloq xo‘jalik muassasalari va tashkilotlariga ilmiy tadqiqot va ta’lim maqsadlari, tovar qishloq xo‘jaligini yuritish va ilg‘or tajribalarni targ‘ib qilish uchun;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga – fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga – dehqon xo‘jaliklarini yuritish, yakka tartibda bog‘dorchilik, polizchilik uchun;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga – jamoa bog‘dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligi uchun;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga – yordamchi qishloq xo‘jaligini yuritish uchun.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yelar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yuridik va jismoniy shaxslarga qishloq xo‘jaligini yuritish, shuningdek o‘zga maqsadlar uchun ham berilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi yerlari o‘zga maqsadlarda, qoida tariqasida, keyinchalik qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli holda keltirish sharti bilan vaqtincha foydalanishga beriladi.

Ma’lumki, qishloq xo‘jalik yerlarining aksariyat qismi qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlari yetishtiruvchilarga foydalanishga berilgan. Shu nuqtayi nazardan, quyidagilar tovar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar jumlasiga kiradi:

- qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari), boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari, shu jumladan qishloq xo‘jalik mahsuloti yetishtirish va uni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan xo‘jaliklararo korxonalar va tashkilotlar;
- o‘zlariga uzoq muddatli ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalanilgan holda tovar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblangan fermer xo‘jaliklari;
- o‘ziga berilgan yer uchastkasida oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida mayda tovar qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirishni va uni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi dehqon xo‘jaliklari;
- o‘ziga berilgan yer uchastkasida oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida mayda tovar qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirishni va uni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi dehqon xo‘jaliklari;
- jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi mahsulotini yetishtirish hamda realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi bog‘dorchilik – uzumchilik va polizchilik shirkatlari;
- o‘zlari yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining bir qismini realizatsiya qilgan taqdirda noqishloq xo‘jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yordamchi xo‘jaliklari;
- foydalanishi yirik tovar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini (paxta va boshoqli don ekinlari yetishtirishni) tashkil etish bilan bog‘liq qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar ustuvor ravishda qay usuliga asoslangan qishloq xo‘jaligi kooperativ (shirkat xo‘jalik) lariga doimiy egalik qilishga beriladi.

Sabzavot – poliz ekinlari, kartoshka yetishtirish, bog‘dorchilik va uzumchilik uchun, shuningdek chorvachilik ehtiyojlari uchun belgilangan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar yuridik va jismoniy shaxslarga egalik qilishga (shu jumladan fuqarolarning meros qilib

qoldiriladigan umrbod egalik qilishiga), foydalanishga yoki ijaraga berilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerdan foydalanish sohasida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarga qator majburiyatlar ham yuklatilgan. Bunday majburiyatlar, Yer kodeksining 48-moddasiga binoan quyidagilardan iboratdir:

- 1) biznes – rejalarda tuproq unumdorligini oshirish va yerdan oqilona foydalanish yuzasidan aniq tadbirlarni nazarda tutishlari zarur;
- 2) mintaqa sharoiti va xo‘jalikning asosiy ixtisosligiga muvofiq ilmiy asoslangan almashlab ekishni, dehqonchilikning eng samarali va iqtisodiy jihatdan oqilona tizimlarini xo‘jalikning ishlab chiqarishiga joriy etishlari zarur;
- 3) haydaladigan yerlar asralishi va imkonni boricha kengaytirilishini ta’minlashlari zarur;
- 4) meliorativ jihatdan nobop sug‘oriladigan yerkarni kompleks rekonstruksiya qilishlari, pichanzor va yaylovlari suv chiqarishlari hamda ularning holatini yaxshilashlari zarur;
- 5) xo‘jalikning butun ichki sug‘orish va kollektor – zovur tarmog‘ini hamda undagi inshootlarni texnikaviy jihatdan soz holatda saqlashlari zarur;
- 6) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini sug‘oriladigan yerkarni sho‘r bosishi va zaxlanishiga, yerkarni va suv manbalarini ifloslanishi hamda zararlanishiga yo‘l qo‘ymaydigan usullar bilan amalga oshirishlari shart;
- 7) qishloq xo‘jalik ekinlari va ko‘p yillik daraxtzorlarni parvarish qilishning suvni tejaydigan texnologiyalarini, sug‘orishning ilg‘or usullarini joriy etishlari zarur;
- 8) Yer Kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlariga binoan yerkarni muhofaza qilish chora - tadbirlarini qurishlari shart.

Yuqorida qayd qilingan majburiytarni bajarish so‘zsiz qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerdan foydalanish samaradorligini oshiradi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining miqdori va sifatini yaxshilaydi.

Qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish haqida so‘z yuritilar ekan, ushbu yerdan asosiy foydalanuvchi, ijara huquqi asosida foydalanayotgan qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari) to‘g‘risida ham qisman to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqli. Yer Kodeksining 49-moddasida qayd qilinadi, “Qishloq xo‘jaligi kooperativi

(shirkat xo‘jaligi) – tovar qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish maqsadida pay usulida asoslangan qishoq xo‘jaligi korxonasining asosiy tashkiliy - huquqiy shakli”.

Qishloq xo‘jaligi kooperativiga (shirkat xo‘jaligiga) foydalanish huquqi bilan berilgan yerlar jamoa egaligidagi yerdidan va fuqarolarga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan yerdidan iborat bo‘ladi hamda ulardan faqat belgilangan maqsadda foydalaniladi.

## **Yer maydonlaridan foydalanishda davlat nazorati**

Yer xususidagi nizolar yarlarni egalik qilish va foydalanish uchun berish, qaytarib olish, chegaralarni belgilash, yerdidan foydalanish va muhofaza qilish qoidalarini buzishdan kelib chiqadi.

Yerlarga egalik qilish va foydalanish jarayonida har xil holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunda yer munosabatlari subyektlari (jumladan davlat organlarining harakatlari yoki ularning zarur bo‘lgan harakatlarni asossiz bajarmasliklari yer egalari, yerdan foydalanuvchilar hamda davlatning huquqlarini buzilishiga olib keladi. Masalan, bir subyektga berilgan yer uchastkasini ikkinchi subyektning o‘zboshimchalik bilan egallab olishi va foydalanishi; belgilangan muddatda yer uchastkasini qaytarib bermaslik va hokazo. Shu holatlar oqibatida yuzaga kelgan munozaralar yer xususidagi nizolar deb ataladi.

Yer xususidagi nizolar yerdan foydalanuvchilar o‘rtasida, ular bilan davlat boshqaruvi organi o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin.

Shuni hisobga olish kerakki, nizolar haqiqiy (qachonki haqiqatan ham huquqlar buzilgan) va xayoliy (qachon shaxs o‘z yanglishishi oqibatida huquqlar buzilgan deb hisoblaydi) bo‘lishi mumkin.

Ikkala holatda ham nizolarni hal qilish quyidagi tartibda amalgalashiriladi: dastlab nizo qiluvchilarning nizosi mazmuni va ularni huquqlari chegarasi aniqlanadi, so‘ngra ularning bir-biriga nisbatan majburiy hisoblangan harakatlari o‘rganiladi. Agar haqiqatan ham tomonlardan birining huquqi buzilgan bo‘lsa, nizo uni tiklash orqali yechiladi, agar u xayoliy bo‘lsa nizo tomonlarga ularning huquqlarini tushuntirish orqali yechiladi.

Yer xususidagi nizolarni o‘z vaqtida va obyektiv tarzda yechish yerdidan samarali hamda oqilona foydalanish imkonini beradi, chunki

bunda nafaqat yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning qonuniy huquqlari, balki davlatning yerga egalik huquqi ham himoya qilinadi.

Yer xususidagi nizolar yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga asosan (Yer kodeksi, 89-modda) yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida yer xususidagi nizolar sud va davlat hokimiyati organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi. Bunda har bir organning nizoni hal qilish bo‘yicha kafolati o‘z hududi chegarasida aniq belgilangan bo‘lib, bu katta amaliy ahamiyatga ega.

**Birinchidan** – bu nizo yuzasidan shikoyat yoki ariza berishda anglashilmovchiliklar kelib chiqishini oldini oladi.

**Ikkinchidan** – yuridik shaxslar va hokimiyat organlarining mas’uliyatini oshiradi.

**Uchinchidan** – nizolarni hal qilish muddatlari qisqaradi.

Yer xususidagi nizolarni hal qiluvchi davlat hokimiyat organlari tizimi quyidagicha: qishloqlar o‘zini-o‘zi boshqaruv idoralari (q.f.y) ular hududidagi yerdan foydalanish masalalari yuzasidan fuqarolar o‘rtasida chiqqan nizolarni hal qiladilar. Shahar hududida yerga egalik qilish va yerdan foydalanish masalalarida davlat, kooperativ va jamoat korxonalari bilan fuqarolar o‘rtasida yuzaga kelgan nizolar shahar hokimiyati idoralari tomonidan hal qilinadi.

Tuman hokimiyat idoralari shu tuman hududidagi yerga egalik qilish va yerdan foydalanish masalalarida shirkat xo‘jaliklari, fermer xo‘jaliklari birlashmalari va ular bilan fuqarolar o‘rtasida chiqqan nizolarni hal qiladi.

Tomonlardan biri respublikada buysunuvchi korxona bo‘lgan nizolar hamda bir viloyatning turli tumanlariga qarashli korxonalar o‘rtasida chiqqan nizolarni ko‘rib chiqish vakolati viloyat hokimiyati idoralariga berilgan.

Turli viloyatlarga qarashli korxonalar o‘rtasida chiqqan nizolar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan hal qilinadi.

Shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarida umumiyl foydalanish tartibi xususida, yakka tartibda qurilgan imoratlarga birga egalik qiluvchilar o‘rtasida chiqqan nizolar sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Bu nizolar uy joylarni meros tariqasida bo‘lish, er-xotinlar va boshqa qarindoshlar o‘rtasida taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Yer xususidagi nizolarni hal etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi: nizoni qo‘zg‘atish; nizoni ko‘rib chiqish; nizo bo‘yicha qaror qilish; qarorni bajarish.

Yer xususidagi nizolar tomonlardan birining arizasiga binoan qo‘zg‘atiladi. Arizada yerdan egalik qiluvchining huquqi buzilganligi haqida dalolat beruvchining fikrlari bayon qilingan bo‘lib, unga tegishli hujjatlar ilova qilinadi. Nizoni ko‘rib chiqish kerakli, hujjatlarni taxt qilishdan boshlanadi. Bu ish asosan obyekt joylashgan yerdagi yer tuzish xizmati organiga yuklatiladi. Kerak bo‘lgan holatlarda maxsus komissiyalar ham tuzilishi mumkin. Komissiyaga davlat hokimiyat organlari, yer tuzish xizmati va qishloq xo‘jaligi mutaxassislarining vakillari kiritiladi.

Yer xususidagi nizo qo‘zg‘atilgandan so‘ng u manfaatdor tomonlar ishtirokida ko‘rib chiqiladi. Bunda tomonlar nizo ko‘rib chiqiladigan vaqt va joy haqida oldindan xabardor qilib qo‘yilishlari zarur. Agar tomonlardan biri kelmay qolsa yoki ariza bermagan bo‘lsa, ishni ko‘rib chiqish kechiktiriladi.

Nizoni ko‘rib chiqish muddatlari umumiylab talabga nisbatan ariza berilgan kundan boshlab bir oy muddat deb qabul qilingan.

Nizo bo‘yicha qabul qilingan qaror dalillar va materiallarga to‘liq asoslangan bo‘lishi va taalluqli me’yoriy hujjatga mos kelishi kerak.

Qabul qilingan qaror belgilangan muddatda bajarilishi kerak. Ko‘pincha qarorni bajarish taalluqli yer tuzish xizmati organiga yuklatiladi. Qarorni bajarish bo‘yicha harakatlar (yer uchastkasini qaytarish, uni foydalanish uchun yaroqli holatda keltirish va hokazo) yer xususidagi nizoning xarakteriga bog‘liq bo‘lib qonun tomonidan o‘rnatalgan. Shu sababli u qabul qilingan qarorda ko‘rsatilgan bo‘lishi yoki qarorni bajarish yuklatilgan organ tomonidan aniqlanishi kerak.

Yer xususidagi nizoda qatnashuvchi tomonlar nizoni hal qilishga oid hujjatlar bilan to‘liq tanishish, sud jarayonida qatnishish, tegishli hujjatlar va boshqa dalillar taqdim etish, chiqarilgan qarordan nusxa olish va unga e’tiroz bildirish huquqiga egadirlar.

Yakka tartibdagi qurilishlar egalarining umumiylab yer uchastkasidan foydalanish tartibi bo‘yicha nizolar ma’lum bir xususiyatlarga ega. Boshqalardan farqli o‘laroq ular nizo chiqqan uchastka joylashgan yerdagida sudlar tomonidan bir yoki bir nechta yerga egalik qiluvchilarning arizasiga asosan ko‘rib chiqiladi.

Materiallarni ishni ko'rib chiqish jarayoniga tayyorlash bosqichida bu ishga uy-joy kommunal xo'jalik va ko'chmas multkadastrlari organlari ham jalb qilinadi. Ular nizoli uchastkalar chizmasi va ulardan amalda foydalanish bo'yicha ma'lumotlar, yer uchastkalarini o'zlashtirish dalolatnomalarni, nizo bo'yicha xulosa va boshqalarni taqdim qiladilar.

Umumiyl foydalanishdagi yer uchastkasidan foydalanish tartibi fuqarolarga qarashli bo'lgan qurilishlarning qismlarini hisobga olib aniqlanadi. Ammo yakka tartibdagi qurilishlarga birgalikda egalik qiluvchilar o'rtasida yer uchastkasida boshqacha foydalanish tartibi shakllangan bo'lib, uni o'zgartirish ularning manfaatdorligini buzgan sud tartibidan chetga chiqarishi mumkin. Sud tomonidan chiqarilgan qarordan nizo ishtirokchilari norozi bo'lsalar ular 10 kun muddat ichida yuqori tashkilotlarga murojaat qilishlari mumkin.

Yer munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan nizolar mulkiy nizolarning alohida toifasini tashkil qiladi.

Ma'lumki, yerdan foydalanuvchilar xo'jalik faoliyatini amalgamoshirish tartibida o'zlariga biriktirilgan yer uchastkalarida ishlab chiqarish, madaniy-maishiy va boshqa qurilishlar va inshootlarni barpo qilishlari hamda ishlab chiqarish xarakteridagi ishlarni (tuproqlarga ishlov berish, qishloq xo'jalik ekinlarini ekish va ularni parvarish qilish, ko'chat ekish va boshqalar) bajarishlari mumkin. Bunda qilinadigan moddiy xarajatlar yer bilan chambarchas bog'liq, qishloq xo'jaligida esa yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Shu sababli yerdan foydalanuvchilar huquqining buzilishi, ko'pgina holatlarda ularga moddiy zarar yetkazish bilan kelishi kuzatiladi. Shunday vaziyatlarda zararni undirish bo'yicha yuzaga kelgan nizolar yer munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan mulkiy nizolar hisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yishda zararlarni undirish bilan bog'liq bo'lgan nizolar;**
- qurilish va boshqa ishlar natijasida buzilgan yerlarni qayta tiklash uchun xarajatlar qiymati bo'yicha nizolar;**
- shirkat xo'jaligi yerlarini o'zboshimchalik bilan egallabolish natijasida qurilgan zararni to'lash bo'yicha nizolar;**
- yer uchastkalari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda uy-joylar buzilgani uchun yer maydoni berish bilan bog'liq nizolar;**

Keltirilgan nizolar sudlarda ko‘rib chiqiladi. Zararning qiymatini hokimiyat organlari tomonidan tuzilgan baholash komissiyalari aniqlaydi.

Shuni qayd etish kerakki, mulkiy nizo har doim ham yer bilan bog‘liq nizo natijasida kelib chiqmaydi. Bunday hollarda obyektlar bo‘yicha chegaralanishi lozim bo‘lgan nizoning ikkala xili ham mavjud bo‘ladi. Bunda dastlab yerdan foydalanish huquqi masalasi undan keyin esa fuqarolik huquqi masalasi ko‘rib chiqiladi.

Yerning huquqiy muhofazasi bu ularni huquqiy vositalar yordamida muhofazalash. Ya’ni davlat organlari yerlariga nisbatan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarning huquq va majburiyatlarini o‘rnatishini ko‘zda tutadi. Muhofaza yerdidan oqilona foydalangan yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni iqtisodiy rag‘batlantirish va qonunbuzarlarni jazolash yo‘li bilan olib boriladi.

Yer to‘g‘risidagi qonun hujatlarini buzish, davlatning yerga egalik huquqini hamda yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning huquqlarini buzish jamiyat uchun xavfli bo‘lgan qonunbuzarliklardan biri hisoblanadi.

Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarchilar tomonidan amalga oshirilgan yer uchastkalari oldi-sotdisi, ularni hadya qilish, garovga qo‘yish (qonunda ko‘zda tutilgan umrbod egalik qilish huquqi, kim oshdi savdosi asosida olingan huquq, yer uchastkasini ijaraga olish huquqi bundan mustasno), yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan ayriboshlash qonunga binoan haqiqiy emas deb hisoblanadi (Yer kodeksi, 90-modda). Nima sababdan bitimlar qonunga zid ekanligini aniqlash uchun ularning qisqacha ta’rifini berib o‘tamiz.

Yer uchastkasi oldi-sotdisi deganda, qonunga xilof ravishda haq to‘lash evaziga o‘z foydalanish huquqini boshqa subyektga o‘tkazish tushuniladi.

Yerlarni hadya qilish deganda, o‘zboshimchalik bilan yer uchastkasini bepul biror shaxsga yoki tashkilotga foydalanish uchun berish tushuniladi.

Yerlarni garovga qo‘yish deganda, o‘zboshimchalik bilan o‘z foydalanish huquqini kredit beruvchiga, biror bir majburiyatni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lum vaqtga berish ko‘zda tutiladi.

Yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan ayriboshlash qachon ikki yoki bir necha yerdan foydalanuvchilar qonun bo‘yicha o‘rnatilgan

tartibga xilof ravishda yer uchastkalari bilan almashishlari oqibatida sodir bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan bitimlar ular tuzilgan vaqtidan boshlab qonunga zid hisoblanadi. Bu rasmiy hujjatda sud qarori yoki hukmida, kafolatli davlat hokimiyati organlarining qarorlarida aks ettiriladi. Aybdorlar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Yer kodeksining 90-moddasiga muvofiq quyidagi holatlarda ham aybdor shaxslar javobgar hisoblanadilar.

- yerlardan belgilangan maqsadda foydalanmaganlikda;
- yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olganlikda;
- qishloq xo‘jaligi yerlarini va boshqa yerlarni yaroqsiz holda keltirganlikda, ularni kimyoviy va radioaktiv moddalar, ishlab chiqarish chiqindilari va oqava suvlar bilan ifloslantirganlikda;
- yerkarning holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan obyektlarni joylashtirganlikda, qurbanlikda, loyihalashtirganlikda, foydalanishga topshirilganlikda;
- yerlardan foydalanishning tabiatni muhofaza qilishga oid talablarini bajarmaganlikda;
- yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilarga va mulkdorlarga qarashli yer uchastkalarining marza belgilarini yo‘q qilinganlikda;
- davlat yer kadastro ma’lumotlarini buzib ko‘rsatganlikda;
- o‘zboshimchalik bilan pichan o‘rganlikda va chorva mollar boqqanlikda;
- yovvoyi o‘tlar va zararkunandalarga qarshi kurash choralarini ko‘rmaganlikda;
- yerdan xo‘jasizlarcha foydalanganlikda, yerkarning holatini yaxshilash hamda tuproqni suv va shamol eroziyasidan va tuproq holatining yomonlashuviga olib keladigan boshqa jarayonlardan saqlash majburiyatlarini bajarmaganlikda;
- yer uchastkalari berish to‘g‘risidagi arizalarni ko‘rib chiqishning belgilangan muddatlari va tartibini buzganlikda.

Yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun huquqiy sanksiyalar qo‘llanmaydi. Ular o‘z navbatida mazmuniga ko‘ra: yerga huquqiy, jinoiy, ma’muriy, tartibga chaqiruvchi va mulkiy ko‘rinishga bo‘linadi.

Yerga huquqiy sanksiyalar yer uchastkasining huquqiy taqdiri bilan bog‘liq bo‘ladi. Agar uchastka oldi-sotdisi fuqarolar tomonidan ochiq ko‘rinishda amalga oshirilsa, yer uchastkasi qaytarib olinadi. Qaytarib olish to‘g‘risidagi tegishli davlat hokimiyat organi qarorida yer uchastkasi sotuvini amalga oshirgan shaxsdan (sotuvchi) qaytarib olishi kerakligi ko‘rsatiladi, amalda esa u sotib olgan shaxsdan (xaridordan) tortib olinadi.

Agar oldi-sotdi tashkilotlar o‘rtasida amalga oshirilgan bo‘lsa, yer uchastkasi sotuvchiga qaytariladi. Agar tashkilot yer uchastkasini fuqarodan sotib olgan bo‘lsa u xaridorda qoldiriladi yoki u tortib olinib, boshqa foydalanuvchiga beriladi.

Qonunga asosan garovga qo‘yilgan, hadya qilingan yer uchastkalari ham agar tomonlardan biri tashkilot bo‘lmasa davlat hisobiga tortib olinadi.

Yer uchastkalari o‘zboshimchalik bilan egallab olinganda uni kim egallab olishidan qat’i nazar qaytarib olinadi.

Jinoiy javobgarlik deganda qonun hujjatlarini buzgan shaxslarga nisbatan sud tomonidan tegishli jazoni qo‘llash tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga asosan (229-modda) yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish yoki ayriboshlash, oldi-sotdini amalga oshirish yoki boshqa qonunni buzuvchi harakatlar uchun ma’lum muddatga (1-3 yil) axloq tuzatish ishlari yoki jarima to‘lash (eng kam ish haqining 50-100 baravari miqdorida), 6 oygacha qamoq yoki 8 oygacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadilar, yuridik shaxslar esa o‘z vazifalaridan chetlashtiriladilar (215-modda).

Ma’muriy javobgarlik jamiyatga unchalik xavf to‘g‘dirmaydigan qonunbuzarliklar uchun qo‘llaniladi va sanksiyalar davlat hokimiyati organlari, davlat inspeksiyasi va xalq sudlari tomonidan qo‘llaniladi.

Yerdan foydalanish va yerni muhofazalash borasida sodir etilgan huquqbuzarlik javobgarlik uchun O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining (MJTK) quyidagi moddalariga to‘g‘ri keladi:

Yerdan xo‘jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holda tushirish (65-modda):

- 1) Yerdan xo‘jasizlarcha foydalanish.
- 2) Obyektlar qurilishi paytida tuproqning unumdor qatlamini olmaslik.

- 3) Yer maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalanish.
- 4) Yerlarni foydalanishdan chiqishiga, hosildorlik pasayishiga, tuproqning unumdar qatlami buzilishi yoki yo‘q bo‘lib ketishiga olib keladigan boshqa harakatlarni sodir etish.
- 5) Tanazzulga yuz tutgan qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiyalashning boshlangan tartibini buzish.
- 6) Qishloq xo‘jaligi va boshqa yerlarni yaroqsiz holda tushirish.
- 7) Yerlarni ishlab chiqarish chiqitlari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radiaktiv moddalar hamda oqova suvlar bilan ifloslanish.

Shunday qonunbuzarlikni sodir etish 65-modda bo‘yicha fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xo‘jalik ichidagi yer tuzish loyihamidan chetlanish, Davlat yer kadastri yuritish qoidalarini buzish (68-modda) [4, 6]:

- 1) Tasdiqlangan yer tuzish loyiha hujjatlaridan tegishli ruxsat bo‘lmay turib chetga chiqish.
- 2) Tegishli davlat hokimiyati organlari bilan kelishmay turib obyektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish va ularni foydalanishga topshirish.
- 3) Davlat yer kadastri yuritish qoidalarini buzish.
- 4) Yerdan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarni buzib ko‘rsatish.
- 5) Yerdan foydalanish to‘g‘risida axborotlar berishdan bo‘yin tovslash yoki noto‘g‘ri axborot berish.

Shu kabi qonun buzarliklarni sodir etish 68-modda bo‘yicha fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan, bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday qonunbuzarliklar agarda tegishli ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilsa u holda fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima salinadi.

Chegara va marza belgilarini yo‘q qilish yoki shikastlantirish (69-modda):

- 1) Egalikdagi yoki foydalanishdagi yerlarning chegara belgilarini yo‘q qilish yoki shikastlantirish.

Ushbu qonunbuzarlikni sodir etish 69-modda bo‘yicha fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

MJTK ning 266 (1) moddasiga binoan Yer resurslari Davlat qo‘mitasi, organlari nomidan ma’muriy hududbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va jarima solish tariqasida quyidagi hududga egadir.

– O‘zbekiston Respublikasi yerdan foydalanish va uni muhofazalash ustidan nazorat qilish bo‘yicha Davlat bosh inspektori va uning o‘rnbosarlari – fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa yetti baravarigacha;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlarning yerdan foydalanish va uni muhofazalash ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat inspektorlari fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravarigacha miqdorda jarima solishga haqlidir.

Yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlari yuridik shaxslar yoki korxona, tashkilot va muassasalarning xodimlari tomonidan buzilsa shu bilan bir vaqtda mehnat intizomi ham buzilgan deb hisoblansa ularga nisbatan *tartibga chaqiruvchi* javobgarlik sanksiyalari qo‘llaniladi.

Qonunda *mulkiy javobgarlikning* ikki xil ko‘rinishi ko‘zda tutilgan: chegaralangan va to‘liq.

Chegaralangan mulkiy javobgarlikda keltirilgan zararni qoplash uchun oddiy ishchilar yoki xodimlardan ish haqining ma’lum bir foizi ushlab qolinadi, yuridik shaxslardan esa jarima oylik ish haqining bir necha baravariga teng bo‘ladi. Misol uchun MUK ning 60-moddasiga asosan mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solinadi.

To‘liq mulkiy javobgarlik, asosan korxona bilan individual shartnoma tuzgan xodimlarga nisbatan qo‘llaniladi. Agar keltirilgan zarar qonunbuzarning oylik ish haqining uchdan bir qismidan oshmasa ma’muriyat qaroriga ko‘ra oylik ish haqidan ushlab qolish orqali qoplanadi. Agar keltirilgan zarar amalda ko‘p bo‘lsa ma’muriyat talabi bo‘yicha ish sudda ko‘rib chiqiladi.

## **Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning nazariy asoslari**

Yer munosabatlarini boshqarish – barcha ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. Munosabatlar ijtimoiylikdan iqtisodiy, huquqiy, ekologik va boshqarishning boshqa turlarini ham o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston jamoatchiligi va iqtisodiyot sohasining olimlari o‘rtasida yer munosabatlarini rivojlanish mexanizmlari to‘g‘risidagi bahslar kengaymoqda.

Fikrimizcha, yer munosabatlarini boshqarish – bu davlatning va jamiyatning yer resurslarini boshqarishga muntazam va muayyan maqsadga qaratilgan ta’sir ko‘rsatishdir. Bunday ta’sir ko‘rsatish mamlakatning yer resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash maqsadida obyektiv qonunlarni bilishga va ularni hayotga tatbiq etishga undaydi. Yer resurslarini boshqarish tarkibiga quyidagilarni kiritishi kerak: yerdan foydalanish ustidan nazorat qilish, tashkillashtirish, tartibga solish, rejalahtirish.

Yer resurslarini boshqarish tizimining asosini obyekt, subyekt, predmet, maqsad, vazifalar va boshqarish funksiyasi tashkil etadi. Boshqarishning obyekti va predmetini tarixiy-ijtimoiy jarayonlar natijasi deb bilish zarur. Boshqarishning predmeti va obyekt turlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Masalan, ko‘p qavatli binolarning yer uchastkalarini boshqarish, bir qavatli binolar joylashgan uchastkalarni boshqarishdan talaygina farqlanadi.

Yer resurslarini boshqarishning maqsadi, mohiyati va vazifasini mustaqil O‘zbekiston jamiyatining bugungi kundagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy harakati belgilab beradi.

Boshqarish obyekti O‘zbekiston Respublikasining yer fondidir, uning subyektlari ma’muriy-hududiy birliklar, ma’muriy tumanlar, shaharlar, yerga egalik qilishning ayrim yer mulklari, huquqiy ma-qomdan foydalanish tavsifi bo‘yicha yerdan foydalanishning farqlanadigan, shuningdek yerdan foydalanishga kirmaydigan (umumiyl foydalanish yerlari) yer uchastkalaridir.

Yer resurslarini boshqarish bo‘yicha ijro – farmoyish berish organlari faoliyatining mazmuni yer resurslaridan foydalanishni rejalahtirish va bashoratlashtirishdan iborat. Yerlarni qayta taqsimlash va yerdan foydalanish, yerga egalik qilishning tartibi va me’yorini belgilash, yerlarni muhofaza qilish va yerdan foydalanganligi uchun faoliyatini nazorat qilishni tekshirish va tezkor – farmoyish berishdir.

Yer resurslarini boshqarish tizimida o‘tadigan jarayonlar asosini uzlucksiz axborot almashinushi tashkil etadi. Bu almashinuvni ta’minlaydigan vosita yer kadastro hamda yer monitoringi hisoblanadi.

Boshqarish jarayonida axborotlar o‘zlarining vazifasi bo‘yicha quyidagilarga taqsimlanadi:

- xabardor qilishga (qabul qilinadigan qarorlarni asoslash uchun foydalaniadi);
- boshqarish jarayoni shakllanadi va subyektga ijro etish va foydalanish uchun yetkaziladi.

Axborotlarni to‘plash, ishlov berish va ularning tahlili yaxlit boshqarish tizimining mohiyatini belgilaydi. Shuning uchun axborotlarni boshqarish komponentlarini aniqlashda ularning ma’muriy hududiy darajalarida o‘zaro aloqadorligi ham muhimdir [14].

Axborotlarning manbai yer kadastro xizmati va boshqa idoralar, shuningdek hokimiyat ijro organlarining materiallari bo‘lishi mumkin: kartografik, material, hisobotlar, kitoblar va qaydnomalar, kataloglar, referatlar, ekspertlar ma’lumotlari, qomuslar, boshqa tekshiruv hamda tahlil materiallari.

Boshqarish tizimining ishlab chiqarish va yaratish jarayoniga uning obyekti va predmetidan tashqari boshqaruvning maqsadi va vazifalari ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga obyekt va predmet ko‘p yillik o‘tmish davrida yaratiladi. Maqsad va vazifalar esa jamiyat tomonidan qisqa muddatda shakllantiriladi. Birinchi va ikkinchi guruhlar o‘rtasida yetarlicha o‘zaro aloqa mavjud. Chunonchi, maqsad va vazifa boshqarishning predmeti va obyekti holatini hisobga olish bilan shakllanadi. Shakllanib bo‘lingan maqsad va vazifa esa ularni realizatsiya qilish paytida boshqarishning predmeti va obyektini shakllantiradi.

Yer resurslarini boshqarishning maqsadi – jamiyatning mujassamlashgan ehtiyojini ifodalashdir. Maqsad yer resurslari xususiyatlaridan foydalanish asosida qondirilish holatini kelajagi va ulardan foydalanish jarayonini aks ettiradi. Yerdan foydalanishning o‘zi bu yer resurslariga ayrim subyektlar yoki jamiyatning bevosita ta’sir ko‘rsatishidir. Shu bilan birga har qanday ta’sir ko‘rsatuvchi yerning aniq xususiyatini iste’mol qilish bilan pisanda qilingan ma’lum maqsadga ega. Jamiyat alohida subyektlar maqsadini ularning ommaviyligi va xilma-xilligi sababli to‘la nazorat qilishga qodir emas. Shuning uchun bu jarayonlarni boshqarishda yerdan foydalanishning umumiyligini qoida

va chegaralarni o'rnatalishini talab qiladi. Bunday chegaralar foydalanish qoidalarini huquqiy rasmiylashtirish yer munosabatlarini chegaralash va foydalanish tizimini o'rnatalish asosida yaratiladi.

Bunday holat yerdan foydalanishning har qanday holati uchun xosdir va yer resurslarini barcha xilma-xil tizimlari uchun umumiyl bo'lib hisoblanadi.

Yer resurslarini boshqarishning maqsadi, umumiyl ko'rinishda yerdan foydalanish bilan bog'langan jamiyat ehtiyojini yanada yuksak darajada qondirishga imkon beradigan yerdan foydalanishning va yer munosabatlari tizimining shakllanishini ta'minlash va yaratishdan iboratdir.

Vaqtning aniq davrida maqsad alohida e'tiborini ifodalashga ega bo'lish mumkin: ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik yoki ularning o'zaro birligida. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar qishloqlar va shaharlar hududida ijtimoiy ustunlikka ega edi. O'sha paytda aholining barcha ehtiyojlarini maksimal qondirilishi mumkinligiga urg'u berilgan. Hozirgi paytda yer bozori rivojlangan sharoitda iqtisodiy o'zgarishi hisobga olishning qayta mo'ljallanishi ro'y berdi, ya'ni maksimal iqtisodiy samaradorlikka erishishi mo'ljallanmoqda. Bu esa ko'pincha xarajatlarni qoplash va pul tushumining ko'rinishini ifodalaydi. Biroq boshqarishning maqsadi ijtimoiy yo'nalihisiz vaziyatning keskinlashuvini keltirib chiqarishi mumkin.

Shuning uchun yer resurslarini boshqarishning maqsadi turmush sharoitlarini ijtimoiy va ekologiya jihatdan yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradigan yerdan foydalanish va yer munosabatlari tizimini amal qilishini ta'minlash va yaratishdan iboratdir. Binobarin, ijtimoiy, ishbilarmonlik va boshqa samarali faoliyatlarini rivojlanishini tabiiy hamda atrof-muhiti xususiyatlarini qayta tiklash, saqlash sharoitlarini shakllantirish, shu jumladan yerni, davlat va Mahalliy budjetlarga moliyaviy mablag'larni ko'proq tushumiga ega bo'lishni ta'minlashdan iboratdir.

Boshqarishning subyektlari quyidagilarga bo'linadi: davlat, mahalliy va xo'jalik boshqaruvini amalga oshiradigan subyektlar. O'z navbatida davlat boshqaruvi umumiyl va idora (tarmoq) boshqaruviga bo'linishi mumkin. Davlat boshqaruvini umumiyl va maxsus huquq doirasiga ega bo'lgan davlat organlari amalga oshiradilar va u hududiy tavsifga ega. U O'zbekiston Respublikasining belgilangan chegarasi

doirasidagi yer toifalari va yer uchastkalari subyektlari huquqiga bog‘liq bo‘lmagan barcha yerkarta tarqatiladi.

Yerlar idora (tarmoq) boshqaruvini vazirliklar, qo‘mitalarning hududiy xizmatlari amalga oshiradilar va qaram korxonalar, tashkilotlarga ham taqdim etilgan.

Mahalliy boshqaruvni o‘z-o‘zini boshqaruv organlari amalga oshiradilar. Bunda boshqaruv ham maxsus tavsifga ega bo‘lishi mumkin. Yerlarni xo‘jalik boshqaruvida yer uchastkalaridan foydalanuvchilar va mulkka egalik qiluvchilarning o‘zlarini amalga oshiradilar. Yer resurslarini boshqarish majmuali tavsifga ega, chunki yer munosabatlari subyektlarining manfaatlariga tegishli, binobarin yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilish jarayonini boshqarishga tizimli yondashuvni qo‘llash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Tashkiliy, texnologik yechimlarni ekologik-iqtisodiy oqibatlar imkoniyatlari bilan bog‘lashni talab qiladi. Yer resurslarini boshqarishni hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro organlari amalga oshiradilar. Ular yer minosabatlarini tartibga soladilar va yerga egalik qilish, yerdan foydalanish huquqlarini muhofaza qilish faoliyatini va sh.k. umumiy strategiyasini belgilaydilar.

Respublikada yer resurslaridan foydalanishni boshqarish 1998-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi qoshidagi yerdan foydalanish va yer tuzish Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan. Boshqarma tarkibida 4 bo‘lim faoliyat ko‘rsatgan: yerlarni davlat hisobi bo‘yicha, yerlarni baholash bo‘yicha, huquq bo‘limi va moliya bo‘limi. Barcha oldingi yillar, iqtisodiyotini rejali hamda yerga davlat mulkchiligi sharoitida boshqarmaning yer siyosati asosan qishloq xo‘jalik yerlarini tashkil etish va ulardan foydalanishga bo‘ysundirilgan edi.

Boshqa toifa yerlari, qoidaga binoan, yer resurslaridan foydalanishni boshqarishda katta rol o‘ynamagan. Ishlab chiqarilgan respublika yerdan foydalanishning Bosh sxemasi hamda viloyatlar va tumanlar yer tuzish sxemalari qishloq hududlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan hamda asosan, qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha tadbirlarni ko‘zda tutgan. Yer tuzish ishlari faqat qishloq xo‘jaligi uchun hamda qishloq xo‘jalik korxonalarida yuritilgan.

Respublika yerlarini davlat hisobi bo‘yicha har yili tuziladigan ma’lumotlar (mamlakat Yer fondi) hamda besh yilda bir marotaba

o‘tkaziladigan baholash turlari (tuproq bonitirovkasi) faqatgina qishloq xo‘jalik yerlariga tegishli bo‘lgan va bu ishlab chiqarish talablarini hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi manfaatlarini qondirgan. Ushbu davrda yer fondini boshqarish muammolarini shunday tarzda qo‘yilishi mamlakatda o‘tkazilayotgan yer siyosatining talablariga, balki javob bergen bo‘lsa kerak, negaki boshqa toifa yerlari to‘g‘risidagi axborotlar xalq xo‘jaligi uchun kerak bo‘lmagan, ammo umuman, u jami yer fondini, barcha yer toifalarini qamrab olmagan, yer resurslaridan foydalanish samaradorligiga baho bermagan.

1998-yil O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jalik to‘g‘risida”, “Qishloq xo‘jalik kooperativi (shirkati) to‘g‘risida”, “Fermer xo‘jalik to‘g‘risida”, “Davlat yer kadastro to‘g‘risida” gi qonunlarni o‘z ichiga olgan holda mamlakatda yer qonunchiligining bazasi yaratildi, yerdan foydalanishga bozor tamoyillari qo‘llanila boshladi, shu jumladan: yerdan foydalanishning pulliligi, xususiy yerdan foydalanish, bozor yer munosabatlari va boshqalar.

Yer resurslaridan bozor munosabatlariga tortilishi hamda o‘tish davrida ulardan foydalanish samaradorligiga talabni oshirilishi sababli 1998-yili hukumat tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari Davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi (Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyuldaggi 114-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari Davlat qo‘mitasi Faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida” gi qarori).

Yer resurslari Davlat qo‘mitasini tashkil etishda asosiy maqsad-bozor sharoitida mamlakat yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash zaruriyatidir. U quyidagi tarkibdan iborat bo‘lgan:

- qo‘mita raisining ikkita o‘rinbosari; - davlat kadastro boshqarmasi, shu jumladan, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatga olish va yer hisobi bo‘limi, yer monitoringi 1-chi o‘rinbosarning tasarrufida bo‘lgan;

- yerdan foydalanish va yerlarni muhofaza qilish inspeksiyasi, yerdan foydalanish va yer tuzish Boshqarmasi, “O‘zdavyerloyiha” ilmiy-loyihalash instituti, “Tuproqshunoslik va agrokimyo” ilmiy tadqiqot instituti o‘rinbosar (ikkinchi) ning tasarrufiga kiradi.

Yer resurslar Davlat qo‘mitasi faoliyatining asosiy funksiyalari quydagilar bilan belgilangan edi: mamlakat yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash; tuproq unumdorligini qayta tiklash, eroziyaga qarshi ishlar, sug‘oriladigan yarlarni meliorativ tayyorgarlik va qator boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003- yil 9- dekabridagi PF-3358-sonli “Davlat boshqaruvining respublika organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi Farmoniga muvofiq hamda yerdan foydalanish, geodeziya va kartografiya sohalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish, yer munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda oqilona yerdan foydalanishni ta’minlash, davlat kadastrining Yagona tizimini yuritish maqsadlarida 2004- yili tugatilayotgan O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari Davlat qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari Bosh boshqarmasi negizida O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari Davlat qo‘mitasi “Yergeodezkadastr” tashkil etilgan.

“Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasining asosiy vazifalari, mamlakat Prezidentining farmonida e’tirof etilgandek, quyidagilar belgilangan:

- yerdan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta’minlash;
- yerdan foydalanish va muhofaza qilishda davlat nazoratini amalga oshirish;
- tuproq unumdorligini oshirish, yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha davlat dasturini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- geodezik va xaritashunoslik faoliyatini boshqarish;
- davlat geodezik nazoratini tashkil etish;
- davlat kadastrini yuritish sohasida joylardagi davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari faoliyatlarini koordinatsiyalash;
- davlat yer kadastrini, davlat kartografiya-geodeziya kadastrini, bino va inshootlar davlat kadastrini, shuningdek davlat kadastrining yagona tizimini rivojlantirish.

“Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomida e’tirof etiladiki, “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi boshqaruв organi hisoblanadi hamda u o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi. Uning hududiy bo‘linmalari Yergeodezkadastrga idoraviy bo‘ysunadilar hamda joylardagi o‘zlariga mos davlat hokimiyati organlariga hisob beradilar, ya’ni metodik jihatdan hududiy organlar idoraviy bo‘ysunuvda bo‘ladilar, hududiy jihatdan esa mahalliy hokimiyat organlariga bo‘ysunadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq “Yergeodezkadastr” tarkibidagi quyidagi korxona va tashkilotlar kirgan:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastrlari boshqarmalari;
- tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastr bo‘limlari;
- davlat geodezik nazorat inspeksiyasi;
- Markaziy ayrogeodeziya korxonasi;
- Samarqand ayrogeodeziya korxonasi;
- “Kartografiya” Davlat ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi;
- Geodeziya va kartografiya Milliy markazi;
- “O‘zdavyerloyiha” Davlat ilmiy-loyihalash instituti;
- “Geoinformkadastr” Davlat unitar korxonasi.

“Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilar qilib belgilangan:

- yer resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta’minlash, yer munosabatlarini muvofiqlashtirishni, yer tuzish va yer monitoringini, tuproqlar unum-dorligini saqlanishi, oshirilishi hamda qayta tiklanishini ta’minlash;
- tuproqlar unum-dorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha davlat dasturini ishlab chiqish va tatbiq etish;
- yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- geodezik va xaritashunoslik faoliyatlarini boshqarish;
- davlat geodezik nazoratni tashkil etish;

- davlat kadastrlarini yuritish sohasida joylardagi davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari faoliyatlarini koordinatsiyalash;
- davlat yer kadastirini, davlat kartografiya-geodeziya kadasirini, bino va inshootlar davlat kadastrini, shuningdek davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish.

“Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasining funksiyasi yo‘nalishlari bo‘yicha, qo‘mita to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq, quyidagicha tabaqlashtirilgan.

### 1. Yerdan foydalanish:

- yer munosabatlarini muvofiqlashtirish, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish tizimlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirishini ta’minlash;
- yerlardan foydalanish, tuproq unumdarligini saqlanishi va oshirilishini ta’minlash sohasida yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruv organlari faoliyatini koordinatsiyalash;
- yer tuzishni tashkil etish, yerdan foydalanish va muhofaza qilish, yer resurslarini hisobini yuritish va baholashni takomillashirishga yo‘naltirilgan majmuali tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruv organlari, joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan yer qonunchiligi talablariga rioya qilinishini, yerdan foydalanish va muhofaza qilinishini davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish hamda yo‘l qo‘yilgan qonun buzilishlarni tugatish bo‘yicha o‘z vaqtida chora-tadbirlar qabul qilinishini ta’minlash va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish;
- yer fondining holati bo‘yicha yer monitoringini amalga oshirish, o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash, salbiy jarayonlar oqibatlaridan ogohlantirish hamda tugatish;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda tuproqlar unumdarligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish va tatbiq etish;
- yer resurslarining holati to‘g‘risida har yilga Milliy hisobotni tuzish.

### 2. Geodeziya va kartografiya:

- davlat geodezik tarmoqlarni yaratish, rivojlantirish hamda ishchi holatda ushlab turish;
- grafik, raqamli, fotografik va boshqa shakllarda davlat va maxsus mohiyatli topografik xarita va rejalarini yaratish, Yangilab turish hamda nashr qilish;
- Yerni masofadan zondlash va geodinamik kuzatuvlarni amalga oshirish;
- tarmoqlararo mohiyatli unumgeografik, siyosiy-ma'muriy, ilmiy-ma'lumotnomali va boshqa mavzuli xaritalar va atlaslar, o'quv kartografik qo'llanmalar yaratish va nashr qilish;
- davlat va maxsus mohiyatli geografik axborotli tizimlarni yaratish hamda yuritish;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasining delimitasiyasi, demarkarsiyasini geodezik, kartografik va gidrografik ta'minoti;
- geodezik, kartografik hamda kadastr ishlarini metrologik ta'minotini tashkil etadi;
- geodezik va kartografik faoliyatini koordinatsiyalash hamda muvofiqlashtirish;
- davlat geodezik nazoratini amalga oshirish;
- davlat kartograf-geodezik fondini shakllantirish va Yangilab turish;
- geografik nomlarni standartlash, hisobga olish va tartibga solishni ta'minlash;
- ilmiy tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va tajriba-texnologik ishlarini bajarish, me'yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish, geodezik va xaritashunoslik asbob-uskunalarini ishlab chiqishni tashkil etish;
- iqtisodiyot tarmoqlarini, fan, mudofaa hamda aholini geodezik, kartografik axborotlar bilan ta'minlash;
- geodezik va xaritashunoslik faoliyalarini litsenziyalashni tashkil etish.

### 3. Davlat kadastrlari:


- mahalliy davlat boshqaruv organlarini va mahalliy davlat hokimiyyati organlarini davlat kadastrlarini yuritishlari sohasidagi faoliyatlarini koordinatsiyalash;

- davlat kadastrining yagona tizimiga kiritiladigan tarmoqli kadastr axborotlarini to‘plash, tahlil qilish, bir tizimga keltirish, saqlash va Yangilab turish;
- davlat yer kadastrini yuritish;
- bino va inshootlar davlat kadastrini yuritish;
- kartografiya-geodeziya davlat kadastrini yuritish;
- ilmiy tadqiqot, tajriba-texnologik ishlarini bajarish, me’yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- viloyat va tumanlar va aholi punktlarining ma’muriy chegaralarini to‘g‘irlash.

#### 4. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxati:

- ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni hamda ko‘chmas mulklar bilan bo‘ladigan harakatlarni davlat ro‘yxatini amalga oshirish;
- ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar, ularni bir huquq egasidan boshqasiga o‘tishi to‘g‘risidagi, huquqlarni cheklanish hamda ko‘chmas mulk bilan bo‘ladigan boshqa xatti-harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bankini yaratish;
- “Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq, qo‘mita quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:
  - kadastr ma’lumotlariga mosligini aniqlash uchun tuproqlar analizini o‘tkazish;
  - yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha belgilangan tartibda tekshirishlarni amalga oshirish, yer qonunchiligi buzilish sabab va oqibatlarini tugatishga yo‘naltirilgan, davlat boshqaruv organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish;
  - aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolarni belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish, yer qonunchilagini buzganligi oqibatida yetkazilgan zararni undirish uchun tatbiq etish; yer qonunchilagini buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslarni javobgarlikka tortish maqsadida tegishli korxona, muassasa va tashkilotlarga taqdimnomalar yuborish;
  - yer qonunchiligidagi belgilangan hollarda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi taklifni joylardagi davlat hokimiyati organlariga kiritish;

- belgilangan tartibda subyektlarning geodezik va xaritashunoslik faoliyatlarini tekshirishni amalga oshirish;
- xalqaro tashkilotlarda yerdan foydalanish, geodeziya, xaritashunoslik va kadastr masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilish;
- xalqaro foydalanish va muhofaza qilish, shuningdek davlat kadastrlarining yagona tizimini yuritish bilan bog‘liq masalalarni birgalikda ishlab chiqish uchun boshqa vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, muassasa va tashkilotlar mutaxassislarini belgilangan tartibda jalb qilish;
- “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasini rais boshqaradi hamda u bir vaqtning o‘zida yerdan foydalanish va muhofaza qilishni nazorati bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining bosh davlat inspektoridir, u uchta o‘rinnbosarga ega. “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi tarkibida 4 ta boshqarma mavjud, shu jumladan yerdan foydalanish bo‘yicha, geodeziya va xaritashunoslik, davlat kadastrovi va moliya boshqarmasi (3-rasm).




*3-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastrlari boshqarmalarining tarkibi.*

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastrlari bo‘yicha boshqarma boshliqlari bir vaqtning o‘zida ushbu hududlardan foydalanish va muhofaza qilishni nazorati bo‘yicha davlat inspektorlari hisoblanadilar. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastrlari bo‘yicha boshqarmalar tarkibi 3-rasmda keltirilgan.

Yer resurslari va davlat kadastrlari bo‘yicha tumanlar (shaharlar) bo‘limlari o‘z faoliyatlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar yer resurslari va davlat kadastrlari tomonidan tasdiqlangan, Nizomga asosan tuman hokimlari bilan kelishilgan holda amalga oshiradilar. Tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastrlari bo‘yicha bo‘limlar tarkibi 4-rasmida keltirilgan.

O‘zining faoliyati davrida “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi tomonidan yerdan foydalanish sohasida quyidagi yirik tadbirlar amalga oshirilgan: qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkatlar) ni qayta tashkil etish asosida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish, ijara asosidagi yer munosabatlarini tatbiq etish, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatga olish maqsadida kadastr xizmatlarida ro‘yxatga olish ofislarni yaratish, yerdan foydalanish pullik tamoyilini tatbiq qilishini ta’minlash, an’anaviy hamda elektron variantlarda yer uchastkalarining kadastr planlarini tuzish, qishloq xo‘jalik yerlarini sifat baholash (tuproq bonitirovkasi), qishloq xo‘jalik yerlarini kadastrli me’yoriy qiymat baholash, davlat chegaralarini demorkatsiya qilish, yer monitoringini yuritish va qator boshqalar.



*4-rasm. Yer resurslari va davlat kadastro bo‘yicha tuman (shahar) bo‘limining tarkibi.*

Shu bilan birga, amaliyot ko‘rsatadiki, xo‘jalik yerlarini sifati hamda ulardan foydalanish samaradorligi nihoyatda past bo‘lib qolmoqda, yer turlari va ekin maydonlarini tarkibini maqbullah-tirishga yetarli e’tibor berilmayapti, chorvachilikning yem-xashak bazasi yomonlashdi, noqishloq xo‘jalik yerlarini kadastrli qiymat baholash mavjud emas, yerdan foydalanishning samaradorligini, ayniqsa aholi punktlari, sanoat, transport va boshqa toifalar yerdan foydalanish samaradorligini baholash amalga oshirilyapti [8].

Tuproq unumdorligini qayta tiklash muammosi o‘tkir bo‘lib qolmoqda, respublikada ishlab chiqilgan yer siyosatini davlat Dasturi mavjud emas, yer resurslarini qayta tiklash Dasturi mavjud emas, yer bozori va yerga ijara huquqining bozori mavjud emas, sug‘oriladigan yerdan foydalanishda bozor tamoyillari yetarli darajada tatbiq qilinmagan.

O‘zimizning hamda chet el mutaxassislar va olimlarning fikrlariga qaraganda, yerlardan foydalanishning samaradorlik darajasini pasayishiga hamda ularni degradatsiyaga uchrashiga asosiy sabab-meliorativ ishlarni yetarli darajada moliyalanmaganligi hamda Respublikada yer resurslaridan foydalanishni past samarali boshqarishdan.

Boshqarish obyekti qanchalik murakkab bo‘lsa undan foydalanishni boshqarish usullari va uslublari shunchalik murakkablashadi. Mamlakatdagi iqtisodiy o‘zgarishlar, yer islohotini amalga oshirilishi, yerdan foydalanish va suvdan foydalanishda bozor munosabatlarini qo‘llanilishi hamda boshqa innovatsiyalarni kiritilishi sharoitida yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash maqsadida yerdan foydalanishni boshqarish muammosi murakkablashadi.

Shuning uchun ushbu muammoni hal qilishning mumkin bo‘ladigan imkoniyatlaridan biri—bu boshqarishni o‘zining tizimli tashkil etishini talab qiladigan yerdan foydalanishni murakkab tizim sifatida qarash zarur.

## **Mevali ekinlarni navlar bo‘yicha joylashtirish va yerdan unumli foydalanish**

Yerdan unumli foydalanishda mevali ekinlardan va uzumdan foydalanish va ularning turlarini va navlarini tuproq, iqlim sharoitiga moslab joylashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ular orasida sovuqqa chidamli va chidamsiz qurg‘oqchilikka chidamli va chidamsiz, kasalliklarga chidamli va chidamsiz, sho‘r tuproqqa chidamli va chidamsiz tur va navlari mavjuddir (5-rasm, 6-rasm).

Bog‘ va tokzorlar hosildorligini oshirishda, meva sifatini yaxshilashda navning ahamiyati katta buning uchun muhim xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan, tez hosilga kiruvchi, mevalarining tovar va ta’m sifatlari yuqori, jahon andozalariga mos keladigan, yuqori hosilli,

eksportbop navlarni yaratish va ishlab chiqarishga joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Respublika hududlari bo'yicha tuproq iqlim sharoitlari har xil bo'lib, o'simliklarning o'sishi, rivojlanishiga, hosildorligiga meva sifati va boshqa muhim ko'rsatgichlariga ta'sir qiladi. Shuning uchun Respublikaning har bir hududiga moslashgan, zararkunanda va kasalliklarga chidamli, yuqori hosilli va har xil muddatlarda pishadigan meva va uzum navlarini ko'paytirish va hududlar bo'yicha joylashtirish lozim [14, 15].

Meva ekinlarini turlari va navlariga binoan har bir hududga moslarini tanlab ekish yerdan oqilona foydalanish va uni to'g'ri boshqarishni ta'minlaydi.

Janubiy hududlar – Surxondaryo va Qashqadaryo va viloyatlarida iqlim sharoitlari keskin kontinental, vegetatsiya davrida havo haroratining yuqori va namligi past bo'lishi o'simliklar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shimoliy hududlarda esa – Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati o'ziga xos tuproq iqlim sharoitlariga ega. Bu yerda tuproqning va sug'oriladigan suvning turlanishi, qishda havo haroratining juda past bo'lishi mevali ekinlarning navlar majmuasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu hududda sho'rga chidamli, sovuqqa va issiqqa chidamli nav va turlar tanlanishi lozim. Janubiy viloyatlar uchun esa issiqqa, qurg'oqchilikka chidamlilik eng zarur va muhim hisoblanadi.



5-rasm. Tog'adirlarda barpo qilingan mevali bog'.



*6-rasm. Lalmikor yerlarda barpo qilingan xandon pista plantatsiyasining umumiy ko‘rinishi.*

Asrlar davomida xalq seleksionerlari tomonidan mahalliy sharoitlarga moslashgan, qurg‘oqchilikka, tuproq sho‘riga, issiqqa, kasallikka va zararkunandalarga chidamli, meva sifati yuqori bo‘lgan navlar yaratilgan.

Shimoliy hududlardagi fermer va dehqon xo‘jaliklarida mevali ekinlarning 20 dan ortiq turi yetishtiriladi, jumladan: olma, nok, behi, o‘rik, shaftoli, olxo‘ri, olcha, gilos, tog‘olcha, unabi, jiyda, anor, anjir, uzum, yong‘oq, bodom va boshqalar. Bu turlar majmuini assosan mahalliy navlar tashkil qiladi. Ular orasida tuproq sho‘riga, qurg‘oqchilikka, havoning past haroratiga chidamli bo‘lgan ajratib olingan va ishlab chiqarishga tatbiq qilinmoqda. Bularga olmaning tuproq sho‘riga, qurg‘oqchilikka, kech bahor ayozlariga chidamli navlari – Yozgi Hazorasp, Sho‘r olma, Shoyi olma, Muz olma, Qishki Hazorasp; O‘rikning Jambil, Mayskiy, Javzaki, Oq pishar, Iris, Qizil qandak, Kech javzaki, Sariq qandak, Xammo o‘rik va boshqalari kiradi.

Olmaning Yozgi Xazarasp, Qishki Hazarasp, Shoyi olma, Qizil olma, Goldin Dilnshes, Rinit simirenko, O‘rikning shaftolisimon Janbil, Javzaki-1, Kechki Javzaki, Qizil qandak, Iris, Oq pishar

navlarining ta'm va tovar sifatlari yuqori bo'lib, hosildorligi ham boshqalardan yuqori turadi.

Mahalliy navlarning muhim biologik xususiyatlari mahalliy sharoitlarda shakllangan. Shu sababdan, ularning tashqi noqulay sharoitlarda chidamliligi ham yuqori. Ular sovuqqa, qurg'oqchilikka va tuproq sho'riga bo'lgan chidamliligi yuqori. Ayniqsa sovuqqa va tuproq sho'riga chidamliligi bo'yicha Avgust yirik o'rigi, Javzaki va Jambil navlari; olmaning tur olma, Qishki Xazarasp navlari eng chidamli hisoblanadi.

Respublikaning Janubiy hududlarida olmaning Qizil olma, Qirmizi, Mayskiy, Golden Dilishes, Renit simirenko, Samarkandskiy ranniy, Starkrimson, o'rikning Oq pishar, Oq o'rik, Buzruk, Djaupazak, Zubaydulloxon, Qandak, Mayskiy, Subxoni, Xurmoi, Shalax, anorning Achchiqdona, Bedona, Dashnobod, Kazaki anor, Qizil anor, Ko'k anor, Yupqa po'choq navlarini joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Markaziy hududlarning iqlim tuproq sharoitlariga mos deb olmaning Borovinka Tashkenskaya, Golden Delishes, Djonaki, Djonared, Djonatan, Djaupazak, Qizil olma, Qizil taram olma, King Devid Mutsu, Namangan olma, Pervenets Samarkanda, Renit simirenko, Rozmarin beliy, Starkrimson, Fudzi, Shirin olma, o'rikning Oq o'rik, Arzami, Isfarak, Qandak, Kechpishar, Subxoni, Shyalax, Yubileyniy Navoi navlari topildi.

Farg'ona vodiysining yerlariga olmaning Boyken, Borovinka Tashkentskaya, Vaynsep, Golden Delishes, Djonaten, Kandil Kirgizskiy, Qizil olma, King Devid, Renit simirenko, Starkrimson, Xokan kimizak Chapizak, Eshonolma, o'rikning Oq o'rik arzami, Qandak, Ko'rsodiq, Ruxi Djuvanon, Subxoni, Shalax, Yubileyniy navi, anorning Achchiq dona, Tuya tish, Kazake anor, Kayumanor, Qizil po'choq kabi navlarini joylashtirish ulardan yuqori hosil olishni va yerkarni samarali boshqarishni ta'minlaydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (asosiy qonuni). T., O‘zbekiston, 2012.
2. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. T., Adolat, 2011.
3. O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi. T., Adolat, 2011.
4. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Davlat yer kadastro to‘g‘risida”. T., Adolat, 2004.
5. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. T., Adolat, 2011.
6. Avezboyev S.A., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. Darslik. T., Yangi asr avlodi, 2004.
7. Avezboyev S.A., Volkov S.N. Yer tuzishning ilmiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. T., Yangi asr avlodi, 2015.
8. Babajanov A.Y., Raxmonov Q.R., G‘ofirov A.J. Yer kadastro (darslik). T., TIMI, 2008.
9. Babajanov A.R., Roziboyev S.B., Abdurahmanova I.Q. Yerdan foydalanish asoslari (o‘quv qo‘llanma). T., TIMI, 2006.
10. Гречихин В.Н. Прогнозирование и планирование использования земельного фонда Узбекистана на современном этапе. Т., Мехнат, 1990.
11. Talipov G‘.A. O‘zbekiston Respublikasi yer kadastro. T., Agropromizdat, 1990.
12. Land Reform in Agriculture.-Mora, Sweden.: Swedesurvey, 2001, 92 c.

13. Mats Backman. Rural Development by Land Consolidation in Sweden.-Washington: XXII FIG IC, 2002.-P. 626-627.

14. Abdullayev R.M. Intensiv bog‘lar uchun meva uzumning yangi navlarini yaratish, fan yutuqlarini ishlab chiqishga yo‘naltirish hamda bog‘ tokzorlarning samaradorligini oshirish “Respublika intensiv bog‘ va tokzorlarni rivojlantirish, hosildorligi hamda meva sifatini oshirish omillari”. Ilmiy amaliy konferensiya materiallari, Toshkent 2013, 8-12 bet.

15. Nabihev U.Y. O‘zbekistonda uzumchilikni jadallashtirish “Respublika intensiv bog‘ va tokzorlarni rivojlantirish, hosildorligi hamda meva sifatini oshirish omillari” Ilmiy amaliy konferensiya materiallari, Toshkent 2013, 18-24 bet.

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
Yer - tabiiy resurs hamda xalq xo‘jaligi tarmoqlarining ishlab chiqarish vositasi sifatida .....	4
Yerdan foydalanish va yer munosabatlari to‘g‘risida tushuncha .....	8
O‘zbekiston Respublikasining yer fondi va undan foydalanish .....	13
Yer fondining toifalari va ularning tavsifi .....	17
Qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish.....	38
Yer maydonlaridan foydalanishda davlat nazorati .....	44
Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning nazariy asoslari .....	53
Mevali ekinlarni navlar bo‘yicha joylashtirish va yerdan unumli foydalanish .....	65
Foydalanilgan adabiyotlar .....	69

**A.QAYIMOV , A.R.BOBONOV**

**YER RESURSLARINI BOSHQARISH VA  
UNUMLI FOYDALANISHDA MEVALI  
EKINLARNING XILMA-XIL NAVLARINI  
JOYLASHTIRISH**

**Toshkent – «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи» – 2020**

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	A.Shushunov
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Rahmatullayeva

**E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 71-245-57-63, 71-245-61-61.  
Nashr.lits. AI№009, 20.07.2018. Bosishga ruxsat etildi 27.05.2020.  
Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 3,25. Nashriyot bosma tabog‘i 4,5.  
Tiraji 100. Buyurtma № 32.**

**«Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи»  
bosmaxonasi» da chop etildi.  
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**